

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning 24-iyuni

boshlagan

● 2023-yil 1-sentabr, №35 (3045)

RI
TM

@ v

t@umail.uz
tatanparvar_uz
mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmi, a

NAVY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

www.mv-vatanparvar.uz



Yangi
hayot
uchun,
Yangi
O'zbekiston
uchun!

ISTIQLOLGA
MUNOSIB TUHFA



6-7

KO'CHMA KUBOK
QARSHILIKLAR
QO'LIDA



16-17

ARMIYAMIZ
SPORTCHISI
JAHON
CHEMPIONI!



18

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ IKKI YILLIGI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining jangovar tayyorgarligini oshirishdagi alohida xizmatlari, milliy manfaatlarimizni himoya qilish, qonun ustuvorligi va tinchlikni ta'minlash, barqarorlik va jamoat tartibini mustahkamlash borasidagi sharaflı burchini bajarish chog'ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko'ssatgani, sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lidagi ko'p yillik samarali mehnati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar orden va medallar bilan mukofotlansin:

I DARAJALI "SHON-SHARAF" ORDENI BILAN

Kurbanov Baxodir Nizamovich – O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri

"MARDLIK" ORDENI BILAN

Abdullajonov Nodir Boqijonovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xizmat boshlig'ining o'rinnbosari

Asatov Sodiq Safarovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinnbosari

Baybutayev Kamoliddin Isroilovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili

Bozorov Sirojiddin Mirzakarimovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Boliyev Umar Usmonovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'quv-dala markazi boshlig'i

Ganiyev O'tkir Karshiyeovich – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Kuchkarov Ne'matjon Xasanbayevich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma katta tergovchisi

Nasrullahayev Inomjon Erkinovich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi xizmat boshlig'i

Samadov Salom Ismatovich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinnbosari

Sotiyev Xurshid To'lqinboyevich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bosh boshqarmasi boshqarma boshlig'i

Toshpulotov Kamoliddin Isomiddinovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Ubaydullayev Zinatdin Xabibullayevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassis haydovchisi

Xayrullayev Erkin Abdusamatovich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'ining o'rinnbosari

Eminjonov Gulyam Kodiroliyevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism komandiri

"DO'STLIK" ORDENI BILAN

Artikova Svetlana Baymirzayevna

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinnbosari

Babayan Irina Rafikovna – Toshkent shahar prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Baxitov Juras Baxitovich

– Qoraqlapog'iston Respublikasi prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Pak Stanislav Yuryevich – Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi Ekspert kriminalistika markazi boshlig'i

Turaxujayev Halilillo Sobirjonovich

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o'rinnbosari

Fyodorov Yevgeniy Mixaylovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bo'limi katta ofitseri

Chudin Andrey Mixaylovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi boshqarmasi xizmat boshlig'i

Sharapov Dinmuxammad

Ravshanbekovich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi otryad usta-qutqaruvchisi

II DARAJALI "SALOMATLIK" ORDENI BILAN

Muxiddinov Baxtiyor Ishanbuvaxanovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bosh kardiologi – bo'lim boshlig'i

Xudenov Xusen Yusupovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bosh mutaxassis – bo'lim boshlig'i

"JASORAT" MEDALI BILAN

Agzamov Farxod Akmalovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi katta tezkor vakili

Akbarov Botir Shokir o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi qidiruv-qutqaruv otryadi usta-qutqaruvchisi

Asadov Bekzod Maxsud o'g'li

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi otryad g'avvos-qutqaruvchisi

Atadjanov Baxtiyor Bekmatovich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqlapog'iston Respublikasi Qo'riqlash boshqarmasi Nukus shahri qo'riqlash bo'limi boshlig'ining o'rinnbosari

Bobonazarov Muzaffar Komiljonovich

– Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Yodgorov Otabek Olimjanovich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi otryad feldsher-qutqaruvchisi

Jumabayev Baxriddin G'ulomjon o'g'li

– O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Jumaniyazov Bakturdi Quramboyevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Xorazm viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Xonqa tumani qo'riqlash bo'limi guruh safdar-xodimi

Ikramov Shovkat Adxamovich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi otryad haydovchi-qutqaruvchisi

Ismatov Farruxjon Komildjonovich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi guruh komandiri

Mahmudov Bahodir Mansur ug'li

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi otryad yo'riqchi-qutqaruvchisi

Mustafaqulov Ilhom Samardinovich

– Surxondaryo viloyati Boysun tumani ichki ishlar bo'limi katta tezkor vakili

Ortikov Jamol Ko'paysinovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o'rinnbosari – bo'lim boshlig'i

Raximberdiyev Alisher Ayubovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandiri

Raximov Shodlik Shuxratovich

– O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Sobirov Sanjarbek Abduxalilovich

– O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Tog'ayev Rustam Nurmamatovich

(marhum) – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Tog'ayev Tatyorgarligi o'quv-mashg'ulot markazi katta yo'riqchisi

Tog'ayniyazov Mansur Xasanovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod yo'riqchi-serjanti

Ubaydullayev Sanjarbek Maxmudovich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma prokurori

O'ralov Sirojiddin Bektemirovich

– O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruva markazi guruh komandiri

"SODIQ XIZMATLARI UCHUN" MEDALI BILAN

Axmedov Rustam Shukuraliyevich

– Toshkent viloyati Bojxona boshqarmasi "Masofaviy elektron deklaratatsiyalash" bojxona posti boshlig'i

Bekchonov Shuxrat Sultonmurodovich

– Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Barbaraxmatov Maxmudjon G'ulomovich

– Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi bo'linma komandiri

Boltaboyev Jaxongir Komiljonovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali bo'linmasi katta ordinatori

Jumayev Jamshid Baxtiyorovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandirining o'rinnbosari

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ IKKI YILLIGI MUNOSABATI BILAN HARBIY XIZMATCHILAR VA HUQUQNI MUHOFAZA QILISH ORGANLARI XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Jo'rayev Maxmudjon Maxamadjonovich

– Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori

Iminov Ziyod Galibovich

– Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinnbosari

Kenjayev Asilbek Baxtiyarovich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya komandiri

Qodirov Xayrulla Baratovich

– Qashqadaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyonni bo'linma komandiri

Mirazimov Mirzoxid Mirsaidovich

– Namangan viloyati Pop tumani ichki ishlar bo'limi tezkor vakili

Mirzayev Shavkatjon Ahadaliyevich

– Farg'ona shahar bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiglashtirish boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Muxamedov Odil Ismatovich – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Normuxammedov Mirmuxsin

Murtozayevich – Navoiy viloyati Navoiy shahar ichki ishlar boshqarmasi profilaktika katta inspektori

Otaboyev Farxod Rizokulovich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Samarqand viloyati Qo'riqlash boshqarmasi Samarqand shahar qo'riqlash bo'limi boshlig'i

Paxratdinov Maxsudjan Maxmudjanovich

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili

Rasulov Ibroxim Asatovich – Buxoro shahar prokurori

Raximov Islombek Aminbo耶evich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bosh markazi bo'lim katta texnigi

Saydazova Xalida Sadikovna – Toshkent transport prokurorining katta yordamchisi

Saparov Amangeldi Yerejepovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kafedrasi siki boshlig'i

Sariboyev Ulmasjon Norbutayevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandirining yordamchisi

Seytmuratov Xojamurat Kulmuratovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o'rinnbosari

Taymuratova Gulchexra Amonovna

– Toshkent shahar Olmazor tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiglashtirish boshqarmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori

Tog'ayev Azamat Javliyevich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshı kurashish departamentining Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani bo'limi boshlig'i

Toxirov Zafarjon Toxirjon o'g'li

– O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi kafedra boshlig'ining o'rinnbosari – siki boshlig'i

Toshboyev G'olibjon Foziljonovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod katta yo'riqchisi – mexanik-haydovchi

Turdiyev G'olib Mustafoyevich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijob etish koloniyasini boshlig'i

Ungarbayev Iskander Orunbasarovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi safdor-xodimi

Uralova Ruxsora Toshpulatovna

– Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi bosh maslahatchisi

Xoshimov Xojiakbar Abdulaxadovich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassis-haydovchisi

Shukurov Akram Gayratovich – Jizzax viloyat sudi raisining o'rinnbosari

Esanov Islom Abdujabbarovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vzvod yo'riqchi serjanti

Eshankulov Musratilla Mardankulovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Samarqand" xalqaro aeroportida xavfsizlikni ta'minlash alohida batalyonni guruhi komandiri

"SOG'LOM TURMUSH" MEDALI BILAN

Kenjebayev Baxitjan Kurbanaliyevich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy klinik gospitali mobil otryadi bo'linma mutaxassisi

Saidnazarov Xamidullo Ibodullo o'g'li

– O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Shukurova Aysha Xudaynazarovna

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy gospitali katta hamshirasni

"SHUHRAT" MEDALI BILAN

Abdullayeva Risolat Sunnatovna

– Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi direktori

Absattorov Azizjon Xusanovich

– Jizzax viloyati Arnasoy tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Allakuliев Mirjalol Davranbekovich

– O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi departamenti boshlig'i

Arabboyev Sardorbek Turgunovich

– Andijon viloyati Oltinko'l tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Ataxanov Kudrat Kurambayevich

– Xorazm viloyati Bojxona boshqarmasi o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tezkor vakili

Berdiyeva Oysanamxon Kodirjon-qizi

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism mutaxassis o'qchisi

Bobojonova Farida Mansurovna

– O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Gulov Ramshid Salim o'g'li

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandirining o'rinnbosari

Dusmuxamedov Alisher Ismatillayevich

– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi boshqarma boshlig'i

Jalolov Mansurjon Shamsiddinovich

– Buxoro viloyati Qorako'l tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Jumayev Zarifjon Quziqulovich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasini huzuridagi Majburiy ijob byurosining Navoiy viloyati Qiziltepa tumani bo'limi davlat ijrochisi

Juralov Abdirashid Isakovich

– Qashqadaryo viloyati Muborak tumani prokurori

Jo'raboyev Ozodbek Abduqaxxorovich

– O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi boshqarma boshlig'i

Zaminova Kamola Taxirjanovna

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism seksiya mutaxassis

Qosimov Sherzod Sarimsoqovich

– Jizzax viloyati Do'stlik tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'i

Kuliboyev Adxam Niyozovich – Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi yo'l-patrul xizmati inspektori

Mamatqulov Oybek Abdullayevich

– Farg'ona viloyati Bojxona boshqarmasi katta tezkor vakili

Mirzabayev Sardor Xudayberdiyevich

– Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani ichki ishlar bo'limi boshlig'ining o'rinnbosari

Mirzaimov Nuridin Raximberdiyevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi Yunusobod tumani qo'riqlash bo'limi texnik qo'riqlash markazi safdor-xodimi

Muminov Nodirbek Abduqaxarovich

– Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyonni bo'linma komandiri

Nigmatov Ravshan Maxkambayevich

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent harbiy musiqa akademik litseyi direktori

Norboyev Buxor Malikmaxmatovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandirining o'rinnbosari

Radjapov Qadamboy Shuxratovich

– O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh katta mexanigi

Raxmankulov Ilhomjon Xakimovich

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi

Risnazarov Aydos Uzakbergenovich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi katta inspektori

Tairov Alisher Ziyadullayevich

– Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyonni safdor-xodimi

Urakov G'ayrat Xalilovich – Samarqand viloyati Bulung'ur tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Xaknazarov Xudoyberdi Dilmurodovich

– O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti fakultet boshlig'i

Xolmatov Bekzod Shuxratovich

– O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurururasini huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'lim boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Mudofaa vazirligida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida tantanali marosim bo'lib o'tdi.



YANGI HAYOT UCHUN,

O'zbekiston madhiyasi bilan boshlangan marosim avvalida mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov so'zga chiqib, yig'ilganlarni xalqimiz tarixida tub burilish yasagan, milliy davlatchilik, o'zlik va insoniq haq-huquqlarni tiklagan, barcha yutuq va marralarimizning zamini bo'lgan qutlug' ayyom – Mustaqillik kuni bilan samimiyl qutladи. Mudofaa vaziri qisqa davrda bosib o'tilgan taraqqiyot yo'lli haqida gapirar ekan, milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan o'g'lolarning fidoyi xizmatini, qo'shinlarning bugungi qudratni, mudofaa salohiyati, jangovar shayligi borasidagi o'zgarishlar,

erishilgan marralarga alohida urg'u berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va ko'rsatmalari bilan so'nggi yillarda barcha qo'shin turlarining zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika vositalari bilan ta'minlangani, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini istalgan vaqtida yuqori darajadagi uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun 21 poligon, 20 dan ortiq o'quv markazi butunlay qaytadan qurilib foydalishiga topshirilgani, jangovar tayyorgarlik intensivligi 2,5 barobarga, olyi harbiy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyat

43 foizga oshgani, o'sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashning yangi tizimi yaratilgani va boshqa ko'plab o'zgarishlarni e'tirof etdi. Vatan fidoyilarining sadoqatli xizmati va sa'y-harakatlari tufayli O'zbekiston armiyasi bugun mintaqamizdagい eng kuchli armiyaga aylanib, tezkor va ixcham, har qanday tahdidlarga munosib javob qaytaradigan qadratli kuchga aylandi, bundan keyin ham milliy qadriyatlarimizga asoslangan yangi an'analarni joriy etishimiz, ulug' ajdodlarimiz sharafli ishlarining avlodlar o'rtaсидagi davomiyligini saqlashimiz zarur, dedi jumladan mudofaa vaziri.





YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

Shundan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligini oshirishdagi alohida xizmatlari, sharaflini bajarish chog'ida mardlik, jasorat va fidoyilik ko'satgan bir guruh harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilariga "Mardlik", "Do'stlik", II darajali "Salomatlik" ordenlari, "Sodiq xizmatlari uchun", "Sog'lom turmush", "Shuhrat" medallari tantanali suratda topshirildi. Marosimda xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan tog' tayyorgarligi o'quv-mashg'ulot markazi yo'riqchisi kichik serjant Rustam Tog'ayevning

otasi Nurmamat Tog'ayevga "Shuhrat" medali topshirilib, oila a'zolariga alohida ehtirom ko'satildi. Davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar nomidan so'zga chiqqan podpolkovnik Jamol Ortikov jumladan shunday dedi:

– Bu mukofotni men harbiy jamoamizga berilgan yuksak ishonch, deb qabul qildim. Prezidentimiz rahnamoligida kundan kunga qudrati yuksalib borayotgan armiyamizning jangovarligi, mudofaa salohiyatini yanada oshirishga va'da beraman. Tomirlarimizda ulug' sarkarda ajodolarimizning qoni oqmoqda, men

ularning vorisi ekanligimdan faxrlanaman.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining bayramona konsert dasturidan avval mudofaa vazirining buyrug'i bilan bir guruh harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari munosib taqdirlandi. Ularga navbatdagli harbiy unvonlar, "Namunali xizmatlari uchun", "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroi uchun" ko'krak nishonlari, faxriy yorliq, vazirning esdalik nishoni va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Furqat ERGASHEV





Mustaqilligimizning
32 yillik shodiyonasi munosabati
bilan Davlat xavfsizlik xizmati Chegara
qo'shinlariga qarashli harbiy qism va
bo'linmalarda ko'plab yangi bino va
obyektlar foydalanishga topshirildi.

ISTIQOLOLGA

Xususan, Farg'ona viloyati Rishton tumanida sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlayotgan chegarachi o'g'onlari va ularning oila a'zolari uchun namunaviy loyiha asosida qurib bitkazilgan zamonaviy Chegarani qo'riqlash vzvodining ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbirda viloyat hokimi, Chegara qo'shnilar qo'mondonligi mas'ul ofitserlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda "Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini aholisi ishtirok etdi.

Unda so'z organlar bugun mamlakatimzda yurt himoyachilari va ularning oila a'zolarini har tomonlhma qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar xususida to'xtalib, mazkur vzvodning foydalanishga topshirilishi ham ana shu sa'y-harakatlarning amalidagi ifodasi ekanini ta'kidladilar.

Xizmat xonadonlarining kalitlari o'z sohiblariga topshirilgach, mehmonlar bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib, islohotlar samarasiga amalda guvoh bo'dilar.

Ta'kidlash kerakki, tuman markazidan 20 km uzoqlikda joylashgan mazkur Chegarani qo'riqlash vzodi o'zida barcha shart-sharoitlarni mujassam etgan kichik harbiy shaharcha ko'rinishida qad rostlagan.

Ma'muriy binoda yurt himoyachilarining bilim olishlari, o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini mutolaa qilishlari, jismoniy va jangovar tayyorgarlik darajalarini yanada yuksaltirishlari, ovqatlanish va dam olishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

Vzvoda mavjud zamonaviy axborot-teknologiyalari, qurol-aslaha va harbiy texnikalar esa sarhadlarimiz daxlsizligi va mustahkamligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Majmuani barpo etishda nafaqat yuqori darajadagi chegara xizmatini tashkil etish, balki harbiy xizmatchilarining oila a'zolari uchun ham qator qulayliklar yaratilgan bo'lib, ikki qavatli xizmat uyi barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlangan. Uy hovlisida buniyod etilgan bolalar maydonchasi endilikda ertamiz egalaringin sho'x-shodon kulgilari bilan to'ladijan bo'ldi.





MUNOSIB TUHFA



Harbiy shaharcha hududida tashkil etilgan Rishton tumanidagi 50-maktabgacha ta'lim tashkilotining qisqa muddatli guruhi sarhadlarimiz posbonlarining farzandlarini maktabgacha ta'lim tizimi bilan qamrab olish barobarida, mazkur yo'nalishda tegishli ma'lumot va malakaga ega bo'lgan harbiy oila bekalarining bandligini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Shaharcha hududida qad rostlagan tikuvchilik va qandolatchilik sexlarida faoliyat olib boradigan opasingillar ham endilikda oila byudjetiga o'z hissalarini qo'shish imkoniga ega bo'ladir.

Shu kabi zamonaviy, yangi harbiy shaharchalar Toshkent viloyatining Bekobod tumani va Angren shahrida joylashgan bo'linmalarda ham bunyod etilib, vzvodlarning ma'muriy binosi, barcha qulaylik va shart-sharoitlarga ega xizmat uylari hamda sport maydonlari sarhadlarimiz posbonlari va ularning oila a'zolariga tantanali tarzda topshirildi.

Bo'stonliq tumanidagi harbiy qismda qad rostlagan 24 xonadondan iborat xizmat uyining ochilish marosimi ham quvonchli va hayajonli lahzalarga boy tarzda o'tdi.

– Istiqlolimizning 32 yillik shodiyonasini yangi uylarda kutib olish baxtiga tuyassar bo'ldik. Bu yerda oilamiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Buning uchun Prezidentimizga o'zim va oilam nomidan chuqur minnatdorlik bildirib, ko'rsatilgan bunday g'amxo'rlik va e'tiborga javoban, zimmadagi jangovar-xizmat vazifalarni sidqidildan ado etishga va sarhadlarimiz daxlsizligini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shishga va'da beraman, – deydi III darajali serjant Abdumalik Mo'minov.

Albatta, shinam va ko'plab qulayliklarga ega bo'lgan bunday zamonaviy majmualar yurtimiz himoyachilarini va ularning oila a'zolari uchun bayramga munosib tuhfa bo'ldi.

VATAN HIMOYACHILARIGA YANGI XIZMAT UYI TOPSHIRILDI

Mustaqilligimizning 32 yillik bayrami munosabati bilan Xorazm viloyatining Urganch shahrida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilariga 5 qavatlari xizmat turarjoy binosi foydalanishga topshirildi.



Urganch shahridagi harbiy qismning ilgari bo'sh turgan hududida endilikda 40 ta xonadondan iborat bo'lgan ko'p qavatlari shinam turarjoy binosi qad rostladi. Barcha qulayliklarga ega bo'lgan yangi xizmat xonadonlari xalqimiz va yurtimiz tinchligini sadoqat bilan himoya qilib kelayotgan yurt himoyachilariga bayramga o'zgacha tuhfa bo'ldi.

Yangi uylarning kalitini egalariga topshirish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shninlar qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Qurolli Kuchlar faxriylari hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar mamlakatimizda o'z hayotini Vatanni himoya qilishdek eng ulug' va oljanob ishga bag'ishlagan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq choratadbirlar belgilanganini ta'kidlab, oxirgi yillarda harbiy sohaga bo'layotgan e'tibor tufayli harbiy qism va muassasalar, dala-o'quv maydonlari infratuzilmasini takomillashtirish, yurt himoyasidek mas'uliyatli kasb egalari va ularning oila a'zolariga qulay shart-sharoitlar yaratish, uy-joy bilan ta'minlash, harbiy pensionerlarning ijtimoiy muhofazasi kabi masalalar dolzarb bo'lib kelayotganini e'tirof etishdi.

Konadonlar barcha qulayliklarga ega bo'lib, harbiy qism oldida bo'lgani uchun jangovar shaylikni yuksak darajada ushlab turishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning zarur hollarda oila a'zolaridan xabar olishi, xizmatdan bo'sh vaqtlarida harbiy shaharcha oldidagi istirohat bog'ida sayr qilish imkonii mavjud bo'lgani esa yanada quvonarli.



Turarjoy binosining hovli qismida bunyod etilgan bolalar maydonchasi endilikda kelajagimiz egalarining doim shodu xurram, sevinib yurishlari uchun xizmat qiladi.

Qo'mondon yangi xonadonlarning kalitlarini tantanali tarzda topshirib, bu uylar yurt himoyachilarini va ular oilalari uchun yaxshi kunlarda xizmat qilishiga ishonch bildirdi. Mehmonlar yangi xonadonlarga ega bo'lgan harbiy xizmatchilarning uylariga kirib, tinchlik-totuvlik, oilaviy baxt va fayzu baraka tilashdi.

Kichik serjant
Abdullahjon UMARALIYEV
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati



HARBIY PROKURATURA VA KUCH TUZILMALARI BILAN HAMKORLIKDA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasi, Mudofaa hamda Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari, Milliy gvardiya mansabdor shaxslari hamkorligida Toshkent shahrining Yashnobod tumanida sayyor qabul o'tkazildi. Band bo'lмаган aholiga xizmat ko'rsatuvchi monomarkazda o'tgan qabulda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, harbiy pensionerlar va boshqa yuzdan ortiq fuqaroning murojaatlari tinglandi.

Harbiy xizmatni o'tash, ish bilan ta'minlash, uy-joy, ijtimoiy himoya va boshqa masalalarga doir muammolarining aksariyati o'z joyida hal etildi. Xususan, mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyev qabul qilgan murojaatlarning 20 tasi ijobiy yechim topdi, 10 tasiga huquqiy maslahatlar berilib, mutasaddilar tomonidan nazoratga olinishi tayinlandi.

– O'g'lim harbiy xizmatni Jizzaxda o'tardi. Yaqinda uning xizmati Chirchiqqa ko'chirildi. Kelinim Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi. Endi u ham o'g'limning yonida Chirchiqdagi oliy ta'lim muassasasida o'qishini davom ettiradigan bo'ldi. Bu masalani hal qilib bergen mutasaddilardan minnatdorman, – deydi samarcandlik Sharbat opa Shodmonova.

Ommaviy qabulda mas'ullar murojaatchilarning

savollariga javob qaytarar ekan, qonunchilikdagi harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq o'zgarishlar, imtiyozlar va ularning haq-huquqlari to'g'risida batafsil ma'lumot berib, Vatan himoyasida turgan o'g'lonlar va ularning oila a'zolari muammolari hamisha qonuniy yechim topishini, yurt xizmatiga intilayotgan yigitlarning harakatlari qo'llab-quvvatlanishini bildirdilar.

Furqat ERGASHEV

✓ POYDEVOR



UCH AVLOD UCHRASHUVI

Asli ayyom nafasi sezilib qolganiga ham birmuncha vaqt bo'ldi. Joylarda kechayotgan qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvar buning isbotidir.

"Uch avlod uchrashuvi" deb nomlangan shunday tadbirlardan biri Qurolli Kuchlar davlat muzeysida Mudofaa vazirligi hamda O'zbekiston faxriylarning ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining Toshkent shahri va Mirzo Ulug'bek tumani bo'limlari bilan hamkorlikda bo'lib o'tdi.

Bugun muzey har qachongidan ham gavjumroq bo'ldi. O'quvchilar, yoshlар yetakchilar, mahallalar faollari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari, harbiy xizmatchilar qutlug' ayyom munosabati bilan tashkilashtirilgan tadbirda yig'ildilar. Harbiy orkestr ijrosida Vatanimiz madhiyasi sadolari poytaxt

bo'ylab olislarga taraldi. "Vatanga qasamyod" majmuasi poyiga gullar qo'yildi.

Toshkent shahri "Nuroniy" jamg'armasi raisi, senator Rustam Kalonov tadbir ishtirokchilarini qutladi, bir qator Vatan himoyachilariga, mahalla faollari va Qurolli Kuchlar faxriylariga esdalik sovg'alarini tantanali tarzda topshirdi.

Shuningdek, tadbirda mudofaa vazirining o'rinnbosari general-major Hamdam Qarshiyevning xalq va armiya yakdilligi yo'lida olib borilgan ishlar yuzasidan ma'ruzasi katta qiziqish bilan tinglandi.

Yuz bilan yuzlashgan inson...

Ikkinci jahon urushining eng qonli jabhalari – Stalingrad (*hozirgi Volgograd*), Kursk yoyi uchun janglarda besh bor yaralansa-da, omon qolgan keksa jangchi Akmaljon ota Akramov – matonat timsoli bo'lib davrada qo'r to'kib o'tirdilar. Ularga so'z berilganida, "o'ningizdan turmay gapiravereng" deya hurmat bildirildi. O'rinalardan turdilar! Yonlariga yugurib kelib, tirsaklaridan tutib, yordam bermoqchi bo'lgan o'g'lonning yordamini rad qildilar! Tabarruk inson barcha-barchani muborak kunlar bilan qutladilar, go'zal tilaklar bildirdilar!

Yurtimizda shunday insonlar borki, ular bilan davralar fayzga, nurga to'lib ketadi. Tadbirda ishtirok etgan ulug'larimizdan adabiyotshunos olim, mohir tarjimon, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afovov ham

ularning biri. Mo'tabar mehmonning "Insonparvarlikning, tinchlikparvarlikning tayanchi bo'lgan ilmiy texnikaning eng oldi va jangovar qurollarini egallab, ularni mahorat bilan boshqaradigan bir avlod bo'lishingizga umid qilaman, ishonaman", degan so'zlarini yig'ilganlar qizg'in qarshi oldi.

Tadbirda qutlov so'zlarini aytganlar ko'p bo'ldi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Shahzod Ahtamovning tabrigini safdoshlari gulduros olqishlar bilan qo'llab-quvvatladi.

Ayyom tadbirlari kuy-ko'shiqlarsiz o'tishi mumkinmi?! Aslo yo'q! Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining xushovoz xonandalari, dilbar raqqosalari betakror chiqishlari bilan yig'ilganlarga olam-olam zavq-shavq ulashdi.

Inobat IBROHIMOVA

Bahrom ABDURAHIMOV

Intellektual bellashuvlar

Poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida joylashgan "Shon-sharaf" davlat muzeyida harbiy xizmatchilar o'ttasida "Tarix bilimdoni" tanloving Mudofaa vazirligi bosqichi o'tkazildi.

Unda ishtirokchilar blits-savollar, test savollari va "Suratdagi tarix" shartlari bo'yicha o'z mahoratini namoyish etdi. Dastlabki shartda harbiy xizmatchilar O'zbekiston va jahon tarixi hamda buyuk ajoddalarimizning harbiy san'atiga oid 3 ta savolga javob berdi. Keyin 30 daqiqa ichida 20 talik test topshirig'ini bajardi. Oxirgi shartda

o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga doir obidalar, mudofaa inshootlari hamda harbiy qurol-aslahalarning suratiga qarab, ular to'g'risida batafsil ma'lumot berdilar.

Tarix bilimdonlarining javoblarini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix



instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Dilnoza Jamolova, Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti Diyor Abdullayev, Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi yetakchi mutaxassisasi Mansur Mo'minovdan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi.

Harbiy xizmatchilarning boy tariximizga oid bilimlarini mustahkamlash, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajoddalarimizdan faxlanish, yurt posbonlari orasidan iqtidorilarni aniqlab, rag'batlantirish maqsadida o'tkazilgan tanloving yakuniy natijasiga ko'ra, kapitan Bunyod Qarshiyev (TOQQ) 1-o'rinni egallab, tanloving respublika bosqichida vazirlilik sharafini himoya qiladigan bo'ldi. G'olib va sovindorlar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shu kuni Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.



Chirchiq garnizoni miqyosida o'tkazilgan musobaqada bilim yurtining "Mustaqillik yoshlari", bilim yurti muddatli harbiy xizmatchilaridan iborat tashkil topgan "Ilg'orlar", Milliy gvardiyaning Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismi muddatli harbiy xizmatchilaridan iborat "Jasorat" hamda "Mard o'g'lon" jamoalarini 3 ta shart asosida bellashdi. Dastlab O'zbekiston tarixi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga oid 20 talik test savollari berildi. Savol-javob shartida jamoalar ikkitadan savol javob qaytardi. Oxirgi mantiqiy savol-javob shartida esa aql-zakovatni peshlovchi savollar o'rta ga tashlandi.

Yakuniy natjalarga ko'ra, mezbon jamoa ("Mustaqillik yoshlari") 1-o'runga sazovor bo'ldi. "Jasorat" (Milliy gvardiya) va "Ilg'orlar" jamoalarini ikkinchi va uchinchi o'rinnlari qo'liga kiritdi. Yakunda barcha jamoalar diplom va kitoblar to'plami bilan rag'batlantirildi.



Qurolli Kuchlar akademiyasi Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi "Eng yaxshi yosh kitobxon" tanlovi mezonlik qildi.



Harbiy okrug va vazirlik tasarrufidagi qo'mondonliklardan saralangan harbiy xizmatchilar tanloving yakuniy bosqichida 3 ta shart asosida bellashdi. "O'zbek adabiyoti bilimdoni", "Jahon adabiyoti bilimdoni" shartlarida ishtirokchilar bilet tortish orqali badiiy asar nomini tanlab, oldindan tavsiya etilgan adabiyotlarning

mazmun-mohiyati, g'oyasi va ahamiyatini sharhlab berdi. "Badiiy asardan parcha" shartida muayyan asardagi syujetga oid episod o'qib eshittirildi. Ishtirokchilar ushbu asar nomi va muallifini topishdi.

Hakamlar hay'atining yakuniy xulosasiga ko'ra, kichik serjant G. Jumamurodova "Eng yaxshi yosh kitobxon" deb topildi va 1-o'rinni egalladi. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar D. Bobomurodov (MHO) ikkinchi va kichik serjant J. Turopov (ShHO) uchinchi o'rinni band etdi. Tanloving g'olib va sovindorlariga diplom hamda qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti harbiy xizmatchilarini tomonidan Zangiota tumanida istiqomat qilayotgan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, nogironligi bo'lgan fuqarolar holidan xabar olindi.

Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
«Vatanparvar»

SAXOVAT TADBIRI

Mehr-muruvvat, saxovat, bag'rikenglik xalqimizning qon-qoniga singib ketgan tushunchalardir. Harbiy xizmatchilar mehrga tashna fuqarolarimiz holidan xabar olar ekan, avvalo, Mustaqillik ayyomi bilan samimiy qutlab, ularga moddiy va ma'nnaviy yordam ko'rsatdi. Bundan tashqari, harbiy institutga biriktirilgan 30 nafer yigitning yashash sharoiti o'rganilib, chora-tadbirlar rejasiga ishlab chiqilgan. Unga asosan, har bir yoshning takliflari tinglanib, muammolari birma-bir hal etilmoqda.

Mayor Sherqo'zi HAKIMOV
Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti



30 YILLIK MUAMMO IJOBİY HAL ETİLDİ

Insoniyat taraqqiyoti jamiyat, oila bo'lib alohida yashashga, uy-joyli bo'lishga intiladi. Har bir oila birinchi navbatda "kichik vatanga", boshpanaga ega bo'lishni orzu qiladi. Zero o'z uying bo'lgani naqadar katta baxt. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yillik bayrami 23 nafar nukuslik vatandoshimiz uchun qo'shaloq bayramga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida harbiy xizmatchi va Qurolli Kuchlar xizmatchisi, ya'ni fuqarolik lavozimlari mudom xizmat qilgan va ishlagan hamda vazirlik balansidagi turarjoy binolarida 15 yildan ko'p vaqt mobaynida yashab kelgan yurtdoshlarimiz eng ulug', eng aziz ayyom arafasida ushbu xonadonlarning huquqiy egasi bo'lish baxtiga sazovor bo'ldi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xalq dardini, uning tashvishi va muammolarini eshitish, ularning samarali yechimini topish va aholiga shu yo'l orqali ko'maklashish kabi dolzarb masalalarga ustuvor vazifa sifatida qarab kelinmoqda. 2017-yilda Prezidentimiz tomonidan "Xalq davlat idoralariiga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan egzu g'oya bugun elimiz farovon turmushini ta'minlashga asos bo'lmoxda.

Ta'kidlash kerakki, Nukus garnizonidagi yopiq harbiy shaharchada ko'p yillar davomida istiqomat qilib kelayotgan aholini qiyayotgan birdan bir muammo – bu yashab turgan xonadonlarini shaxsiy mulk sifatida xususiylashtirish edi. O'z uyida begonanikida yashayotgandek xavotirda yashash, uying-joying bo'lsayu, u xususiy mulk bo'lmaganidan keyin vaqtি kelib qachondir bu uydan ko'chaga haydalishingni kutish naqadar azobli. Ushbu muammo sabab harbiy shaharchada yashovchilar qayerlarga murojaat qilmadi, qayerlarga arz-shikoyat qilmadi. Qaysidir tashkilot ularni sarson-sargardon qilsa,

qaysidiri qonunchilikka to'g'ri kelmaydi, deya qisqa javoblar bilan hafsalalarini pir qilib qaytarardi.

Nukus harbiy prokururasi tomonidan ushbu masalalar chuqur o'rganilib, fuqarolarning manfaatlari yo'lida Nukus harbiy sudiga ma'muriy tartibda arizalar kiritildi va harbiy sud tomonidan mazkur arizalar qonun doirasida ko'rib chiqilib, masalaga niyoyat ijobi yechim topildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 22-moddasida "Fuqarolar va yuridik shaxslarning turarjoyini xususiy mulk qilib olish asosları" belgilangan. Unga muvofiq, fuqarolar ko'satilgan asoslardan tashqari yana turarjolarni qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa asoslarga binoan ham xususiy mulk qilib olishlari mumkinligi nazarda tutiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining

187-moddasiga muvofiq, "Mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzlusiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi" deb belgilanganligi va egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat kelgani sababli harbiy shaharchadagi 23 ta xonodon yurtdoshlarimiz tomonidan xususiylashtirilishiga qonuniy asos bo'ldi.

Yurtdoshlarimizning quvonchli kunlarida ularga bayramona tuhfa sifatida Nukus garnizonida mol-mulk huquqini fuqarolarga beradigan sertifikatlarni topshirish tadbiri o'tkazildi. Unda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlar qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov, Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi Ulug'bek Abdurahimov, Nukus harbiy sudi xodimlari, Qurolli Kuchlar faxriylari, Nukus shahri hokimligi hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirot etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar oxirgi yillarda harbiy xizmat nufuzini oshirish, Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari va ishchi-xodimlar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratish, ularning qonuniy manfaatlarni ta'minlashning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash maqsadida sohada keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganini e'tirof etdi. Davlatimiz rahbari tomonidan harbiy xizmatchilar, harbiy xizmatdan rezervga yoki iste'foga bo'shatilgan fuqarolar va ularning oila a'zolariiga ijtimoiy ko'mak berish

masalalarini oqilona hal etishga qaratilgan tadbirlar, ularni uy-joy bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirishga katta e'tibor berilayotganiga urg'u berildi.

O'z uyiga egalik huquqini beruvchi sertifikatlarni olgan yurtdoshlarimiz 20-30 yillardan beri armon bo'lib kelgan orzulariga erishib, endilikda o'z uylarida xotirjam yashashi mumkin bo'ldi.

Ana shunday qiyinchiliklarni boshdan o'tkazib, bugungi dorilomon kunlarda mustaqilligimiz bayramini birinchi marotaba o'z uyida, oilasi davrasida o'tkazayotgan Zamira aya Saribayevaning quvonchi cheksiz. Uning marhum turmush o'rtoq'i Muxtarbek Dijyemuratov 1998-yildan 2004-yilga qadar Nukus hudidiy uy-joydan foydalanish qismida texnik-xizmatchi lavozimida ishlab yurgan kezlar unga yopiq harbiy shaharcha hududidagi Mudofaa vazirligi balansida bo'lgan ikki xonali xizmat xonadoni vaqtincha yashab turish uchun berilgan edi. Er vafot etgach, ayol ikki nafar o'g'li bilan ushbu xonadonda shu kunga qadar hech qanday xususiy mulkdorlikka doir hujjalarga ega bo'limasdan yashab kelayotgandi. Bugun ushbu oilaning ko'p yillik orzusi ushaldi. Ikkinci o'g'lini uylantirishni niyat qilib yurgan onaxon endilikda to'ya tayyorgarlikni uyni ta'mirlash ishlaridan boshlashni rejalashtirmoqda.

Albatta, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosini ko'p jihatdan xalqimizning farovon turmushini ta'minlash, yurtdoshlarimizni qiyab kelayotgan muammolarni hal etishga bog'liq. Zero barcha davlat idoralari xalqimizga xizmat qilsagina, biz kuchli va kelajagi porloq davlatni bunyod eta olamiz.



Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i



TARBIYAMIZDA VATANPARVARLIKKA JOY BORMI?

Eng baland imoratlar ham poydevordan boshlanadi. Xo'sh, vatanparvarlik tarbiyasi-chi? Albatta, oddiy tarbiyadan. Oilada beriladigan, shu ostonani, Vatan poydevori bo'lmish oilani sevmoq, uning tartibotlarini hurmat qilmoq, unga sadoqat qilmoqni o'rgatadigan oddiygina tarbiyadan.

Bizga ma'lumki, har bir bola tarbiya asosini eng avvalo oildan, keyin ijtimoiy muhitdan oladi. Lekin har bir oila yetarlicha tarbiya berish salohiyatiga egami? Bundan tashqari, bolaning tarbiyachilari – ota-onha har doim uning yonida bo'la oladimi? Ota oila boqishi – ishlashi kerak. Bugungi kun ayollari ham tinch o'tirmaydilar – ishlab, turmush o'toqlariga ko'maklashishlari yoki uysda biror hunar bilan shug'ullanishlari, gohida esa turmush tashvishlarining iqtisodiy yukini mutlaqo o'z yelkalariga olishlariga to'g'ri keladi. Bunday hollarda bolaga yetarlicha vaqt ajratishning imkonini bo'lmaydi, albatta.

E'tirof etish lozimki, shaxsni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'limgiz tizimi oildan keyingi o'rinda, Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida bog'cha tarbiyachisi, makkab muallimi, keyingi ta'limgiz bosqichlaridagi professor-o'qituvchi va ilmiy-jiodiy ziyoilarni bejiz Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishni asosiy maqsad qilib olish lozimligini qayd etib o'tmadi. Bu maqsad ostida ham bizning ta'limgiz tizimidagi sharqona va milliy qadriyatga aylangan "tarbiya asosida ta'limgiz berish" tamoyili asos sifatida namoyon bo'lib turibdi. Bundan tashqari, bu jarayon "Uzlusiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi"da ko'zda tutilgan vazifalarning amali sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'nnaviy qashshoqlik davlat va jamiyatni zaiflantiradigan eng katta kuch emasmi? Davlat va jamiyat zaif bo'lgan joyda ilmni qanday rivojlantirish mumkin? Yoki rivojlangan taqdirda ham, yoshlar bu ilmni davlat va jamiyat manfaatlari qarshi ishlatsmaydi, deb kim kaflot bera oladi?

Ularga vatanparvarlikdan, milliy va umuminsoniy axloqdan,

Vatan oldidagi burchdan kim saboq beradi? Kim ularda milliy g'urur shakllanishiga ko'maklashadi, kim ularni milliy g'oya bilan qurollantiradi? Afsus bilan qayd etish lozimki, ta'limgiz mafkuralashtirish va milliy g'oya bilan qurollantirish o'tasidagi farjni bilmaydigan rahbarlarimiz ham bor ekan.

Milliy g'oyaning qadriyatlashuvi milliy axloqni shakllantirishga, jamiyat a'zolarini ma'nnaviy boyitishga, yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. Jaloliddin Manguberdi qalbida erk va ozodlik milliy g'oya sifatida qadriyatlashmaganida, unga o't va shijoat bera olarmidi? Yoki sohibqiron Amir Temur davrida el-ulusni birlashtirish, "Kuch – adolatda" ekanligi milliy g'oya darajasiga ko'tarilmaganda, u shunday buyuk davlat qura olgan bo'larmidi?

Yana bir rahbar talabaning ustozlar ustoziga savol berayotganda hatto o'rnidan ham turishni istamaganini erkinlik, deb ta'rifladi. Qarang-a! Ertaga bolamiz: "Dada, turing, to'rda men o'tiraman!", qizimiz: "Ona, tanishing, bu kuyovingiz, biz farzand kutyapmiz!" deganini ham erkinlik deb qabul qilamizmi?

Biz ko'pincha "ommaviy madaniyat" G'arbdan kirib keldi", degan gapni ishlatar ekanmiz, go'yoki bu "madaniyat" G'arbdan azaldan hukm surib kelganday qaraymiz. Men yaqinda ingлиз adabiyotidan Sharotta Brontening "Jeyn Eyr" asarini va yana bir qancha G'arb adabiyotiga oid asarlarni rus tilidan o'zbek tiliga o'girdim. Ma'lumki, har bir davr adabiyoti o'sha davrdagi ijtimoiy muhit, axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Men mana shu asarlarda keltirilgan ikki-uch asr oldingi G'arb hayotida bugungi

"ommaviy madaniyat" unsurlarini ko'rmadim. Ularda mustahkam oila qadriyatları, yuksak darajadagi etiket qoidalari aks etgandi. Bundan xulosaga kelish mumkinki, G'arb yoshlarining bugungi "erkin" qiyofasi azaldan kelmayapti, u aynan tarbiya ta'limgizda uzib qo'yilgani tufayli shakllangan.

Biroq vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda har qanday rivojlangan, demokratik tamoyillar ustuvor davlat ham ta'limgiz tizimidan foydalanishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, hatto Amerika davlatida ham vatanparvarlik g'oyalari ta'limgiz tizimida singdirilishi mustahkam asoslab qo'yilgan. Aytaylik, mashg'ulotlardan oldin davlat madhiyasini ijob etishda qaysidir o'quvchi o'rnidan turmasa yoki qo'llini yuragi ustiga qo'ymasa, u o'sha kuniyoq o'qishdan chetlatiladi. Shuningdek, har bir Amerika maktabi sinflarida milliy bayroq osilgan, ko'p hollarda unga sodiqlik qasami qabul qilinadi.

Xitoya esa vatanparvarlik mafkurasi nafaqat yurti, balki shahri, provinsiyasi, oilasi, hatto o'z uyi o'chog'ini, shuningdek xitoy tilini sevish va faxrlanish asosiga qurilgan. Vatanparvarlik tarbiyasi Xitoy pedagogikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda ular Vatan tarixi, milliy bayramlar, milliy qadriyatlarini o'qitish, musiqa darsida Vatan haqidagi qo'shiqlarni o'rgatishni asos qilib olgan. Targ'ibot ishlardan ijtimoiy tarmoqlardan keng foydaliladi, anomim izohlar yozish taqiqlangan, davlat va fuqarolar o'tasidagi ijtimoiy aloqalar ham internet orqali yo'ilga qo'yilgan.

Erkinlik, demokratiya nima o'zi? U xohlagan gapini gapirib, xohlagan ishini qilish deganimi? Afsuski, ko'pgina yoshlarda mana shu tushuncha shakllanib boryapti. Shu bois ular ustozlariga o'rinalardan turmay, stulda yalpayib o'tirgancha savol beryaptilar. Shu bois o'smir yoshdagagi o'quvchilarimiz o'qituvchi doskaga o'girilganda bemalol derazadan sakrab chiqib ketyapti. Bu ham yetmaganday, qolgan o'quvchilar o'qituvchi ustidan kulyapti. Biz-chi, biz

nima qilyapmiz? O'qituvchining bu qizga bergen tanbehini muhokama qilamiz, ularga ottonalar oldida uzr so'ratamiz, tarbiya bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarni qisqartirishga ko'maklashamiz.

Yaqinda axloq falsafasidan dars o'tishga kirgan birinchi kunim talabalarga savol berdim: "Nima deb o'ylaysizlar, nomutaxassis yo'nalishdagidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerakmi?" Ularning aksariyati kerak emas, deb javob berdi. Ular uchun qo'shimcha fan – qo'shimcha imtihon, qo'shimcha oraliq va yakun nazorat degan edi. Fanni o'tib bo'lganimidan so'ng talabalar bilan yana kichik debat o'tkazdim. O'rta ga tashlangan savol quyidagicha edi: "Nima deb o'ylaysizlar, nomutaxassis yo'nalishdagidagi talabalar uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar kerak ekanmi?"

Tan olish kerak, albatta, ular orasida yana bir-ikki nafer "bizning mutaxassisligimiz uchun bu fan kerak emas", deguvchilar ham bo'ldi. Bular darsni ko'p qoldiradigan, past bahoga o'qiydigan, kasb etiketiga riyoq qilmaslik, forma kiymaslik, savolni o'rnidan turmay berishni erkinlik deb biladiganlar toifasidan edilar. Ammo 90 foizdan ortiq talaba bu fanlar albatta o'qitilishi lozimligini e'tirof etdi. Ayniqsa, talabalardagi ushbu fikrlar diqqatimni tortdi:

"Biz G'arbda qabul qilinayotgan "bir jinsililar nikohi" kabi axloqsizliklarning demokratiya oqimi ostida bizga ham ko'chib o'tishi mumkinligini hozir tasavvurimizga ham sig'dira olmaymiz. Ammo kim biladi deysiz, agar milliy tarbiyanı yo'qotsak, 40–50-yillarda o'tib, biz ham bu holni G'arbdagiday xotirjam qabul qilarmiz?"

Talaba haq edi. Bu degani, aniq fanlar singari tarbiyaga oid fanlar natijasini, ehtimol, bir kunda, bir oyda yoki bir yilda ko'rsatmas. Lekin biz bu fanlarni siqib chiqaradigan bo'lsak, natijani yigirma yo o'tiz yillardan so'ng talaba aytgan darajada ko'rsak ne ajab?

Shu o'rinda Yaponiya ta'limgiza oid bir fakt yodimga tushdi. Yapon ta'limgiz tizimida

birinchidan to oltinchi sinfga qadar "Axloq tomon yo'l" dasturi asosida dars o'tilar ekan. Bu darslarda yapon bolalari faqat axloq, etiket qoidalari, odamlar bilan muomalani o'rganar ekan. Janubiy Koreyada ham shunday, tarbiyaviy darslar bilan birga musiqa, tasviriy san'at darslari o'tilar ekan. Bu – qalb tarbiyasi degani. Ularda jamiyatda ustoz degan nomning ulug'lanishi alohida e'tiborga molik.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiy etishi uchun, birinchidan, ta'limgiz va tarbiyaning uyg'urnigini ta'minlash lozim, bunda tarbiyaning milliy asosi bo'lmish milliy qadriyatlarimiz foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, tarbiyaga oid fanlar o'qitilishining o'rta va olyi ta'limgiz uzvyligini yo'la qo'yish kerak. Bunda maktabning har bir o'quv yilida dasturga albattra tarbiyaga oid fanni kiritish lozim bo'ladi. Masalan, 1–4-sinflarda odobnoma, keyingi yillarda bir-birini to'ldiruvchi uzviy ketma-ketlikda Vatan tuyg'usi, ekologik madaniyat, etiket qoidalari, ma'nnaviyat asoslari, huquqshunoslik, jamiyatshunoslik, axloqshunoslik, estetika kabi fanlarni o'qitish lozim, deb o'yayman.

Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlarga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirish choralarini ko'rish kerak. Bu choralar ichiga o'qituvchi malakasini oshirish ham, ularga moddiy sharoit yaratish, rag'batlantirish ham, ularning huquq va sha'nlarini himoya qilish masalalari ham kirib ketadi. To'rtinchidan, ma'nnaviyat va ma'rifat markazlari va ularning bo'limlari faoliyatini ta'limgiz tizimini bilan uyg'unlashtirish lozim.

Hazrat Navoiy shunday degan ekanlar:

Menga ne yor-u
ne oshiq havasdur;
Agar men odam ersam,
ushbu basdur;

Bu xuddi "Olim bo'lma, odam bo'l" degan naqlini eslatadi. Biz ham faqat olimni emas, ham odam-u, ham olimni tarbiyalasak, ayni muddao bo'lar edi.

Shahlo AHROROVA,
falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori

SHARAF VA O'RNAK RAMZI

Mamlakatimizda 31-avgust Qatag'on qurbanlari xotirasi kuni sifatida keng nishonlanib kelinadi. Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligining Toshkent shahridagi harbiy qism shaxsiy tarkibi bilan "Shahidlar xotirasi" maydonida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'uloti o'tkazildi.

17 gektarni tashkil etuvchi ushbu me'moriy yodgorlik majmuasi 2002-yil 31-avgust kunida bonyod etilgan bo'lib, u Vatanimiz ozodligi uchun kurashda jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasining manguligi ramzidir.

Mashg'ulot davomida shu maydonda vafot etgan ziyoli shahidlar – Abdulla Qodiriy,

Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpion va boshqa jadidchilar o'tmishi hamda yorqin xotiralari haqida ma'lumotlar tinglandi.

Shuningdek, yodgorlik maydonida joylashgan "Qatag'on qurbanlari" muzeysiiga ham tashrif uyushtirildi. Muzeydagi sharqona me'moriy uslubdagi qurilish san'ati, mavjud ekspozitsiyalar, noyob fotosuratlar va tarixiy

hujjatlar harbiy xizmatchilarda katta taassurot qoldirdi.

Ishtirokchilar ushbu tashrifdan mamlakatimizdagagi millat oydinlari haqida qisqacha ma'lumotlar olish bilan bir qatorda, o'zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni xususida zarur xronologik ma'lumotlar bilan tanishdi.



Tashrif so'ngida mashg'ulot rahbari hamda ishtirokchilari tomonidan bu kabi amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkillashtirishga kelishib olindi.



ZAKOVAT

ZUKKOLAR BAHSI

"Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi, bilim qayerda bo'lsa, buyuklik bo'ladi", degan edi mutafakkir olim Yusuf Xos Hojib.

Harbiy xizmatchilarning intellektual bilimlarini oshirish, zukko va bilimdon yoshlarni tarbiyalash maqsadida Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismda "Zakovat" intellektual o'yinining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi. Respublikamizning deyarli

barcha viloyatlardagi harbiy qislardan saralanib kelgan 8 jamoa o'zaro bellashuvlarga kirishdi. Jamoalarni adolat mezoni asosida baholab borish uchun qo'mondonlikning ofitserlari tomonidan hakamlar hay'ati tuzildi.

Ochiq osmon ostida o'tkazilgan mazkur bahslar

shiddatli va murosasiz kechdi. Unda harbiy xizmatchilar har bir savollarga tezkorlik bilan javob berib, o'zlarining bilimi hamda zukkoligini namoyish etdilar.

Musobaqada g'olib va sovindor deb topilgan jamoalar qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi hamda Mudofaa vazirligi bosqichi yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

Qo'shinlarda bu kabi intellektual o'yinlarning tizimli ravishda o'tkazilib kelinishi jamoalarda sog'iom raqobat hamda harbiy xizmatchilarning doimo o'z ustida ishlashiga undab kelmoqda. Zero kitob o'qigan insонning ma'naviyati yuksak, dunyoqarashi keng, tafakkuri boy bo'ladi.

YARMARKA

ELGA XIZMAT – OLIY HIMMAT

Toshkent, Andijon, Samarcand, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining olis hududlarida joylashgan harbiy qismlarda mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligi munosabati bilan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida harbiy xizmatchilar uchun arzonlashtirilgan oziq-ovqat va o'quv qurollari yarmarkasi o'tkazildi.

Hududlardagi hokimiyat hamda tadbirkorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkasida harbiy xizmatchilarning bayram dasturxonasi uchun go'sht mahsulotlari, ho'l mevalar, poliz ekinlari, salqin ichimliklar, qandolat va boshqa bir nechta mahsulotlar savdo rastalaridan joy olib, arzonlashtirilgan narxlarda xaridorlarga yetkazildi. Shuningdek, yarmarkada muddatli harbiy xizmatchilar, ularning farzandlari uchun o'quv qurollari hamda turli xil kitoblar savdosи ham tashkil etildi.

Olis hududlardagi harbiy qismlarda arzonlashtirilgan yarmarkalarning o'tkazilayotgani yurtimizda inson qadrining nechog'li ulug'ligidan dalolat beradi.


SHODIYONA

TANTANALI TADBIR

Toshkent shahrida joylashgan Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida ham Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlab "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Unda polkovnik Jur'at Yakubov barcha harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga, Qurolli Kuchlar xizmatchilariga bayram tabrigini yo'lladi. So'ngira mudofaa vaziri hamda qo'shinlar qo'mondonining tegishli buyrug'iga asosan, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol bo'lgan bir guruh harbiy xizmatchilar qimmatbaho va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar berilgani esa ular uchun unutilmas kun bo'lib goldi.





"HAR DOIM MUHABBAT G'ALABA QOZONADI"

Мурининг
СЕШАНБА ДАРСЛАРИ

Улишни ўрганган кунинг яшашни хам ўрганасон



Kitoblar shu qadar ko'p... Tanlash ham qiyin. Aslida kitob tanlashda unchalik ham qynalmayman. Ba'zan uni varaqlay turib, bitta ko'nglimga yoqqan fikr borligi uchun ham sotib olaman, ba'zan yozuvchining mashhurligi uchun tanlayman, ammo mashhurlarning barcha asarlari ham muvaffaqiyatlari chiqavermaydi.

"Morrining seshanba darslari" – Mitch Elbomning bu asarini kitobsevar oydin singillarimdan biri Sayyora Mirzayeva tavsya qildi. Men uni nega aynan shu kitobni tanlagani, nimasi o'ziga jalb qilgani bilan qiziqdim.

– Muqovadagi yozuv e'tiborimni tortdi: "O'lishni o'rgangan kuning yashashni ham o'rganasan". O'lishni ham o'rganadimi? Qanday qilib? O'ylash ham vahimali-ku?! Aqlimdan shunday o'ylar kechsa ham qiziqdim. Keyin... muqovasi ham bir boshqacha, chiroyi, o'ziga tortadigan, ayniqsa guldon ichidagi chechaklari bilan jonli ko'rindi. Va men bu kitobni sotib oldim!

Sayyora go'zallik shaydosi. Uning tanloviiga ishonibishonmay, kitobni varaqladim. Odatdag'i hovliqmaligim bilan dastlabki sahifalarni shitob bilan o'qiyan. Bir parchani o'qiyotib, sekinlashganimni sezdim...

Mana, o'sha parcha:
"U ota-onamga uning barcha darslariga qoldirmay qatnashganimni aytadi. "Ajoyib o'g'lingiz bor, boshqalarga o'xshamaydi", deydi professorim ularga. Uyalganimidan yerga qarayman. Ketishimizdan oldin professorga atalgan sovg'amni beraman: old tomoniga professor ism-sharifining bosh harflari tushirilgan jigarrang portfel. Sovg'ani bir kun oldin savdo markazidan xarid qilganman. Professorni unutib yuborishni xohlamasdim. Balki, u meni unutishini xohlamagandirman.

"Mich, sen yaxshi insonso", deydi u portfeli mamnuniyat bilan ko'zdan kechirarkan. Keyin u meni bag'rige bosadi. Belimda uning nimjon qo'llarini his qilaman. Bo'yim unikidan novcharoq bo'lgani sababli meni bag'rige bosganda, o'zimni g'alati, undan kattaroq sezaman, go'yoki men ota, u esa farzandimdek tuyuladi. U mendan xabarlashib turishni so'raydi, men hech ikkilansmasdan: "Albatta", deb javob qaytaraman.

U orqaga tisarilganida ko'zları yoshlanganini ko'raman".

Ha, aynan shu parcha, o'zbekona aytganda, ustoz va shogirdning xayrlashuvidagi samimiyat, ayniqsa "go'yoki men ota, u esa farzandimdek" jumlasidagi harorat qalbimga ko'chgandek bo'ldi.

Asarni Maqsud Salomov, Gulsanam Roziqova ingliz tilidan o'zbek adabiy tiliga chevirganlar. Va bu bilan o'zbek o'quvchilariga go'zal hadya ilinibdilar.

Bugun ko'pchiligidan o'zida dunyoni jamlagan shapaloqdek telefonlarga "asir" bo'ldik. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ortiq berilganlik, undagi eng shafqatsiz, og'ir, ba'zan g'ayriinsoni xabarlarni ham bemalol qabul qilish qalbni qattiqlashtiradi. Atrofimizga: tabiatga, bolalarga, keksalarga, yaqinlarimizga loqayd munosabatga sabab bo'ladi. "Morrining seshanba darslari" esa qalblarni halimlashtiradigan,

inson uchun eng muhim bo'lgan munosabatlar, amallar borligini anglatadi.

Adib Ulug'bek Hamdam shunday yozadi: "Kitoblar hayotdan "ko'chirilgan" turli-tuman nusxalar aslida. "Dunyoda jamiki hislar ustidan Qahqaha uradi bu qadim hayot", deydi Abdulla Orif. Xuddi shunday, kitoblar ustidan-da qahqaha uradi hayot deganiz. Chunki u (hayot) doimo turlanib turadi. Kitoblar esa turlanayotgan hayotning faqatgina bir yoki bir necha holini aks ettirgan bo'ladi. Axir u faqat bir necha "hol" dangina iborat emas-da. Shuning uchun "Kitoblar ba'zan odamni aldaydi", deb qo'yishadi. Avvalo, Hayot deb atalgan kitobni o'qish kerak. Qolgan barcha kitoblar shuning yaxshi-yomon sharhlari xolos. Lekin sharhlarni qo'shib o'qigingay Hayotni chuqurroq va ko'lamliroq anglash, his qilish mumkin.

"Morrining seshanba darslari" ham hayot sharhi. Ayrim tuyg'ularimiz, o'ylarimizni tartibga soladigan, insonning yashashdan asosiy maqsadi haqida fikrashga chorlaydigan sharh.

O'qiyimiz: "Saksoninch yillard kealdi. Keyin to'qsoninchi yillard. O'lim va xastalik nimaligini ko'rdim, semirdim, sochlarmi to'kila boshladi. Sanoqsiz orzularimni kattaroq maoshga almashdim, qizig'i, nimalardan voz kechayotganimni anglab yetganim ham yo'q. Yonimda o'tirgan Morri esa go'yoki men uzoq ta'ildan qaytgandek, hali ham universitet yillaridagidek dunyoga hayrat bilan boqardi.

– Qalbingni tortiq qilishga arzirli insonni topdingmi? – so'radi u. – Odamlarga yaxshilik qilyapsanmi? Qalbing xotirjammi? Qo'lingdan kelganicha insoniylikka intilyapsanmi?"

Bu savollar... Menga daxli yo'q, deb aytolmaysiz. Rostdan ham, hamon hayratlaringiz qolganmi?! Yoshlikdagi go'zal va ezgu orzularingizga erishdingizmi yoki u orzulardan uzoqlashib ketdingizmi?

Kim o'zi bu professor Morri? "Oq futbolka va qora ishton kiyib, bo'yniga sochiqcha tashlab olgan Morri... qanday musiqa qo'yilsa, shunisiga o'ynab ketaverardi. U yerda hech kim uning yillab tajribaga ega universitet professori va bir nechta e'tiborga molik kitoblar yozgan atoqli jamiyatshunoslik fanlari doktori ekanini bilmasdi. Shunchaki esi og'ib qolgan chol deb o'yashardi".

U esa oltmisidan oshganida bedavo dardga yo'liqdi. Og'zidagi luqmani chaynash ham o'ir bir mehnatdek azob chekish nimaligini bilasizmi?! O'limni mardona qabul qildi – bunisi mening fikrim. Hayot baribir go'zal! O'limni mardona qabul qilib bo'lmaydi. Biz insonmiz, isyonlarimiz bor, haqli, nohaq... Yashagimiz keladi. Ammo haqni haq ekanini ham qabul qilishimiz kerak. U so'nggi damlarini hech kimdan pinhon tutmasdan, tiniq aql bilan, o'zgalarga dars o'laroq bir shaklda kechirdi. Kitobdan keltirilgan parchalar asar qimmatining o'ndan birini ham anglata olmaydi. Uni o'zingiz o'qishingiz lozim, o'zingizni qo'yib, o'zingizga savollar berib, o'zingizni xotirlab.

O'qiyimiz: "G'uvullab aylanib turgan kameralar qarshisida Morri ko'zoynagini to'g'riladi.

Biroz jimib qoldi, labini tishladi va bo'g'ziga tiqilib kelgan tugundan xalos bo'lish uchun yutina boshladi. Ko'zlaridan yosh dumaladi.

– Bolaligimda onamni yo'qtganman... Bu men uchun qattiq zarba bo'lgan... O'shanda men ham siznikidek qayg'ularim bilan bo'lisha oladigan guruha o'qiganimda edi. Men, albatta, guruhingizga qo'shilgan bo'lardim chunki...

Uning ovozi titrab ketdi.
– Chunki men shu qadar yolg'iz edimki...

– Morri, – dedi Koppel, – onangiz vafot etganiga yetmish yil bo'ldi. Hali ham qayg'udan azob chekasizmi?

– Bo'imasam-chi, – shivirladi Morri.

Iqlar, tana rangi tuyg'ularga ta'sir qilmaydi. Inson Yer yuzining har yerida insonligicha qoladi: qayg'ulari, quvonchlari, baxti, baxtsizligi, sog'inch, ayrlilqlar, tirilish, o'lim – hammaga xos. Yuqorida parcha bolalik dunyomizning ko'rki bo'lgan asarlar muallifi ardoqli adibimiz Xudoiberdi To'xtaboyevni eslatib yubordi. Ular ham mo'tabar bir yoshda onasi, otasi haqida gapirib, entikib-entikib ko'zlariga yosh olgандilar. "Onangiz vafot etganiga yetmish yil bo'ldi. Hali ham qayg'udan azob chekasizmi?" Adibimizni ham bolalikdagi qayg'ulari tark etmagan ekan...

O'qiyimiz:

– Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'sating, yo'qsa haloktaga yuz tutasiz". Yaxshi gap-a? Juda to'g'ri aytigan. Mehr-muhabbsiz qanotlari singan qushga o'xshaymiz. Aytaylik, men ajrashgan, yolg'iz yoki befarzand bo'lganimda, boshimga tushgan sinovlarni yengib o'tish ancha og'irroq bo'ldi. To'g'ri, odamlar menden xabar olgani kelardi: ammo ular har doim sen bilan birga bo'uvchi yaqinlaringdek bo'lmaydi... Oolang har doim sen uchun qayg'urishini bilish. Hech narsa buning o'mini bosa olmaydi. Na boylik, na shon-shuhrat, na ish. ...Shu yo'sinda u o'layotgan joyida ham farzandlarining o'z dunyosi borligini hurmat qilishini ko'rsatdi. Balki, shu sabablidi, ular Morrining yonida bo'lganda, mehrlari daryodek oqishi, tinimsiz hazil qilishlari, karavot yonida o'trib, uning qo'llaridan tutishlari va o'pib qo'yishlari odamni ko'p ham hayratga solmasdi".

Aziz o'quvchi, so'nggi parchani bir yarim betlik sahifaning orasidan "yulib" keltirdim. Buning uchun uzr so'rayman, asarga, asar muallifiga humratsizlikday tuyuldi menga. Bularni o'qirkan, tuyg'ularimizni, mehrimizni oshkora bildirmak naqadar to'g'ri yo'l ekanligini tushundim. Otalarimiz, onalarimiz ham xuddi bolalarimiz kabi shafqatga muhtojlar: qo'llaridan tutaylik, o'pib qo'yaylik, suyansa bo'ladiqan katta oila barpo qilganlari uchun, borliklari uchun...

Bu juda yaxshi kitob, muallifi yot yurtdan bo'lsa ham, siz-u bizga qadrli turmushdan, hayotdan bahs etiladi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

OBOD MAKON HAQIDAGI KITOB-ALBOM

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan "Yangi Mo'ynoq" kitob-albomi taqdimoti bo'lib o'tdi. "Ma'naviyat festivali" doirasida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatni, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakillari hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.



Bugun yurtimizning eng chekka hududi – Mo'ynoq tumani obod makonga aylandi. Bundan bir necha yillar muqaddam yuz bergan Orol dengizining dahshatlari fojiasi ushbu tuman tabiatni, ekologiyasi, insonlarning yashash yuva turmush tarzida keskin o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Prezidentimiz Qoraqalpog'iston Respublikasiga, xususan Mo'ynoqqa qilgan har bir tashrifi chog'ida hududni rivojlantirishga alohida

e'tibor qaratmoqda. Bugun tuman qiyofasi zamonaviy ko'rinishga kelib, u yerga ikkinchı hayot bag'ishlandi. Yangi qurilgan amfiteatr va Davlat xizmatlari markazi, madaniyat markazi va stadion, turarjoy binolari, oilaviy poliklinikalar, maktablar, bog'chalar, zamonaviy kutubxonalar, muzeylar, musiqa va sport maktablari aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Kitob taqdimoti davomida Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi besh yil ichida Mo'ynoq

tumanida amalga oshirilgan tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar, bunyodkorlik ishlari tilga olindi. "Yangi Mo'ynoq" kitob-albomi tumandagi o'zgarishlarni ma'lumot va suratlar orqali bayon etib, o'quvchiga bu hudud boshidan o'tkazgan musibatlar haqida so'zlaydi.

Tadbirda shoir va yozuvchilar tomonidan istiqlol madhi tarannum etilgan ijod namunalari o'qib eshitirildi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining

taniqli ijodkorlari bayramona kuy va qo'shiqlari bilan davraga xush kayfiyat ulashdi.

Kitob taqdimoti Mustaqillik bayrami arafasida o'tkazilayotgani ham bejiz bo'lmay, shu orqali Yangi O'zbekistonning yangilanib borayotgan nafasini his etmoqlikka chorlaydi.

Shohista ABDURAHMONOVA
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati

INSON QADRI UCHUN

ARZONLASHTIRILGAN MAKTAB YARMARKALARI

Eng ulug', eng aziz ayyom arafasida harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash maqsadida ularga sifatli oziq-ovqat mahsulotlari hamda oliy va o'rta maxsus ta'limga muassasalarida ta'limga boshsanishi oldidan maktab qurollari arzonlashtirilgan narxlarda yetkazilmoqda. Nukus garnizonidagi yopiq harbiy shaharchada Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan tashkil etilgan bayram yarmarkasidan ham aynan shunday ezgu niyat ko'zlangan.



Yarmarkaga mahalliy fermer, dehqon va tadbirkorlar hamda harbiy qismlarning yordamchi xo'jaligi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari bozor bahosidan arzonroq narxda yetkazilib, harbiy shaharcha aholisiga qo'shimcha qulayliklar yaratildi. Oziq-ovqat mahsulotlari rastalarida mol,

qo'y hamda parranda go'shti bilan birga tirik baliq mahsulotlari ham o'r'in oldi. Badiiy kitoblar savdosи, bolajonlar uchun maktab formasi va o'quv qurollaridan iborat yarmarka ko'pchilik uchun manzur bo'ldi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Yoshlarni yurtga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan barkamol avlod sifatida voyaga yetkazish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida keng ko'lamli sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Ayni maqsadda mamlakatimizda "Tinchligimiz, taraqqiyot va farovonlik uchun!" shiori ostida professional ta'lim muassasalari o'quvchilari o'ttasida 3 bosqichli "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasi o'tkazildi. Musobaqa O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Sog'liqni saqlash, Madaniyat va turizm vazirliklari hamda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etildi.



KO'CHMA KUBOK



Dastlabki – tuman va shahar bosqichida 1 566 ta jamoada 48 ming nafardan ziyod yosh ishtirok etgan bo'lsa, hududiy bosqichda 166 ta jamoada 26 mingdan ortiq yosh qamrab olindi. Respublika bosqichi Chirchiq shahridagi harbiy qismlardan birida bo'lib o'tdi. 14 ta jamoa vakillari tezkor savol-javob, "AKM" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish, kamondan o'q otish, arqon tortish va harbiy biathlon shartlari bo'yicha g'oliblik uchun kurash olib bordi. Musobaqa shaffof va xolis o'tishi uchun mutasaddilar tomonidan har bir shart bo'yicha o'sha sohaning malakali mutaxassislari hakamlikka jalb etildi. Bellashuvchilar ikki kun davom etgan "Ko'pkurash" harbiy-vatanparvarlik sport musobaqasining respublika bosqichida g'oliblik uchun shiddatlari va murosasiz bahslarga kirishdi. Birinchi o'rin uchun belgilangan 100 million so'm va ko'chma kubok, ikkinchi o'rin uchun 70 million so'm, uchinchi o'rin uchun esa 50 million so'm hamda turli nominatsiyalar uchun qimmatbaho sovg'alarning borligi musobaqa shiddatini yanada oshirdi.

Birinchi kunning so'ngida Toshkent harbiy okrugi qo'shnlari qo'mondoni polkovnik Zokirjon Sayfuddinov musobaqa ishtirokchilari bilan gulxan atrofida suhbat qurdi. Samimiyl va ko'tarinki kayfiyatda o'tgan uchrashuv yoshlarga berilayotgan e'tibor, imtiyoz va imkoniyatlardan keng foydalangan holda, milliy armiyamiz saflarida xizmat qilish istaklarini yanada oshirishga qaratildi. Yoshlarning harbiy va turli sohadagi qiziqishlariga oid savol hamda murojaatlariга to'liq tushunchalar berib o'tildi.

Musobaqaning harbiy biathlon sharti yakunlovchi bo'lib, g'olib va sovrindor jamoalar to'plagan ballari natijasiga ko'ra aniqlandi. Bunda Qashqadaryo viloyati Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti qoshidagi akademik litseyning "Qalqon" jamoasi 1-o'rin, Toshkent viloyati Ohangaron tumani 1-son kasb-hunar maktabining "Energetik" jamoasi 2-o'rin hamda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 2-son kasb-hunar maktabining "Po'lat qalqon" jamoasi vakillari esa 3-o'rinni qo'iga kiritdi.

– Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk tariximiz, ulug' ajodolarimizning boy ma'naviy merosi, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning jahon





QARSHILIKLAR QO'LIDA



sivilatsiyasi hamda harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissalarini yoshlar o'ttasida keng targ'ib etish, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz ko'rsatgan vatanparvarlik va qahramonlik, ulardagi sadoqat, fidoyilik, matonat hamda jasorat kabi xislatlarni, shuningdek yurt, oila, ota-onasi va farzandlar himoyasi xalq va ajdodlar xotirasi oldida muqaddas burch ekanligini yoshlar ongiga singdirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisi Temurbek Poyonov. – "Xalq va armiya bir tan-u, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlari bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirgan holda, harbiy qism tartib-intizomi, u yerda yaratilgan sharoitlar, o'quv binolari, ovqatlanish joylarimiz o'z ko'zlari bilan ko'rib, tanasida his etishlari uchun ham "Ko'pkurash" musobaqasini harbiy qismda o'tkazmoqdamiz. Mana, bir necha kundirki, tanlov ishtirokchilari tunni askarlar yotoqxonasida o'tkazdi. Ular harbiy xizmatchilarning hayat tarzini o'z ko'zlari bilan ko'rishga tuyassar bo'ldi. Musobaqani o'tkazishdan asosiy maqsad ham yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otishdan iborat edi. O'yaymanki, hamkorlarimiz bilan o'tkazgan ushbu tadbirimizdan ko'zlagan maqsadimizga erishdik. G'olib va sovindorlarni taqdirlash marosimiga tashrif buyurgan aholining ko'pligidan ham bilish mumkinki, "Xalq va armiya bir tan-u, bir jondir!" degan ezgu g'oya o'zini to'laligicha oqlamoqda. Bu kabi hamkorlikdagi tadbirlarimiz ko'p yillard davom etadi.

Musobaqaning taqdirlash marosimi ko'tarinkin ruhda o'tdi. Harbiy qism saf maydoniga o'rnatilgan katta monitor va uni yoritib turgan turli rangdag'i musiqiy chiroqlar tashrif buyurgan fuqarolarga xush kayfiyat bag'ishladi. Ayniqsa, yoshlar ardog'idagi taniqli san'atkorlarning chiqishlari barchanining olqishiga sabab bo'ldi. Yopilish marosimi so'ngida otilgan mushaklar esa musobaqa ishtirokchilari va tashrif buyurgan mehmonlarning quvonchiga quvonch ulashdi.

Sherzod SHARIPOV,
«Vatanparvar»



URMIYAMIZ SPORTCHISI JAHON CHEMPIOANI

Germaniyaning Duysburg shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha navbatdagi jahon championati o'tkazildi. Unda qatnashgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Artur Guliyev jahon championi bo'ldi.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish sport turi xususida so'z ochilganda mamlakatimiz sport muxlislari birinchi navbatda bu borada yurtimizda eng yetakchi Olyi mahorat sport maktabi hisoblangan MVSMni va armiyamiz sportchilari – Vyacheslav Gorn, Gerasim Kochnev hamda Vadim Menkovni tilga olishadi. Ayniqsa, ofitser Menkov ko'plab xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'lishdan tashqari ikki marta jahon championligiga erishib, Vatanimiz dovrug'ini dunyoga taratishga salmoqli hissa qo'shganligi bilan yurtimiz sport muxlislari ko'nglidan chuqur joy olgan. Endilikda u erishgan muvaffaqiyatlarning davomchilari MVSMda yana kamol topmoqda. Xususan, bir qator musobaqalarda Menkov bilan birga, ya'ni juftlik hosil qilib yoki uchlilik va to'rtliklarda birgalikda harakatlanib, sovrindor

bo'lgan Artur Gulyev bundan besh yil oldin Ruminiyada o'tkazilgan 23 yoshgacha bo'lgan yoshlari o'tasidagi dunyo birinchiligidagi g'olib chiqib, jahon championi bo'lgandi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Artur kattalar o'tasida Vengriyada o'tkazilgan dunyo birinchiligidagi ham qatnashdi va Elyorjon Mamadaliev bilan birga juftlik bahslarining bronza medalini qo'lga kiritdi. Mana endi u Menkovning haqiqiy izdoshi, katta mahorat egasi ekanligini namoyish qilgan holda kattalar o'tasida ham jahon championligiga erishdi. Kanoechimiz avgust oyining so'nggi kunlari Germaniyaning Duysburg shahrida o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha jahon championatining 200 metr masofaga kechgan hal qiluvchi poygasida eng yaxshi natijani (38.729) qayd etib, g'olib chiqdi. Musobaqanining kumush va bronza medallari

ispaniyalik Xoan Moreno (38.769) hamda polshalik Oleksi Koliadixga (39.046) nasib etdi.

Parij shahrida o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlariga muhim reyting ochkolarini taqdim etadigan jahon championatida asosiy negizi MVSM vakillaridan iborat bo'lgan mamlakatimiz terma jamoasining boshqa baydarka va kanoechilarini ham ishtirok etdi. Xususan, Fayziyeva/Zokirova dueti, shuningdek Yekaterina Shubina, Yuliya Borzova, Arina Tanatmisheva hamda Kamila Malaxovadan iborat baydarkachi qizlarimiz yarim finalgacha bo'lgan bahslarni muvaffaqiyatli davom ettirdi. Afsuski, hal qiluvchi pallada ulardan omad yuz o'girdi, lekin "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'lida muhim reyting ochkolariga ega bo'lishdi.



BOKS

“ПАРІЙ – 2024” ГА ЕЛТУВЧИ ЎО’ЛЛАР

Xalqaro Olimpiya
qo'mitasi boks
bo'yicha "Parij
– 2024" yozgi
Olimpiada o'yinlariga
yo'llanma beruvchi
musobaqalar
taqvimini e'lon qildi.

Kelgusi yil
3-iyunga
qadar davom
etadigan mazkur
musobaqlarda
yurtimiz bokschilarini,
xususan Mudofaa
vazirligi Oliy
sport natijalarini
rivojlantirish markazi
vakillari ham
qatnashishi mumkin.



Joriy yil poytaxtimiz mezbonlik
qilgan boks bo'yicha jahon
championatida charm qo'lqop
ustalarimiz 5 ta oltin, 2 ta kumush,
2 ta bronza, jami 9 ta medalga
sazovor bo'lishdi va terma jamoamiz
umumjamoa hisobida 1-o'rinni
egalladi. Albatta, bu 1993-yildan
buyon dunyo birinchiliklarida mustaqil
jamoa sifatida ishtirok etib kelayotgan
O'zbekiston terma iamoasi uchun

rekord va o'ziga xos tarixiy natijadir. Zero shu paytgacha bokschilarimiz hech bir jahon championatida 5 ta oltin va umumiy hisobda 9 ta medalni qo'lga kiritmagandi. Ayniqsa, final janglarining 7 tasi muzaffar bokschilarimiz ishtirokida kechishi dunyo boks muxlislari qatori mutaxassislarni ham hayratga soldi. Shundan so'ng bokschilarimiz Polsha va Rossiyada o'tkazilgan xalqaro turnirlardan qatnashib, iami 21 ta medal shodasiga egalik qilishdi.

MVSM vakillari ham munosib ulush qo'shgan bu muvaffaqiyatlar joriy yil mamlakatimiz boksi rivojida keskin o'zgarishlar ro'iylari beravotganidan daletat.


Keskin o'zgarishlar ro'y berayotganidan dalolat. Erishilgan yutuqlar, tabiiyki, yurtimizda boks muxlislari safining yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Endilikda boksga oid har bir voqelik yoki oddiy xabar ular uchun qiziqarli, hatto avtobus bekatlarida ham uchratgan sherigi bilan muhokamali. O'tgan hafta ular WBO tomonidan bildirilgan bokschilarning avgust oyи uchun yangilangan reytingini keng muhokama qilishdi, bu hafta esa yanada qiziqarli mavzu paydo bo'ldi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Parij shahrida o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlariga yo'llanma beruvchi boks bo'yicha musobaqalar taqvimini e'lon qildi. Unga ko'ra, "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'l beruvchi turnirlar 2023-yilning sentabr oyidan 2024-yil 3-iyunga qadar davom etadi. Olimpiadaning boks bahslari uchun jami 248 ta kvota o'rni e'lon qilingan bo'lib, ayollar uchun 124 ta, erkaklar uchun 124 o'rin ajratilgan. Jahan bokschilar qatori yurtimiz charm qo'lqop ustalari ham quyidagi litsenzion musobaqlarda "Parij – 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun kurash olib borishi mumkin:

1. "Xanchjou – 2023" Osiyo o'yinlari.
Musobaqa sanasi: 2023-yil, 23-sentabr – 8-oktabr.
O'ynaladigan litsenziyalar soni: 34 ta (*14 ta erkaklar va 20 ta ayollar vazn toifalarida*).
 2. Busto-Arsitsio (*Italiya*) jahon litsenzion turniri.
Musobaqa sanasi: 2024-yil, 29-fevral – 12-mart.
O'ynaladigan litsenziyalar soni: 49 (*28+21*).
 3. Bangkok (*Tailand*) jahon litsenzion turniri.
Musobaqa sanasi: 2024-yil, 23-may – 3-iyun.
O'ynaladigan litsenziyalar soni: 51 (*28+23*).



TO'RT NAFAR BOKSCHIMIZ G'OLIB

AQSh, Polsha va Rossiyada kechgan ring janglarida to'rt nafar professional bokschimiz qatnashdi va ularning barchasi g'alaba qozondi. Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakili Lazizbek Mullajonov professional boksdagi g'alabali seriyasini 4 taga yetkazgan bo'lsa, hamyurtimiz Bahodir Jalolov o'zining 13-g'alabasiga erishdi.



Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili, superog'iр vazni bokschimiz Lazizbek Mullajonov Polshaning Vrotslav shahrida o'tkazilgan professional boks oqshomida qozog'istonlik Nursulton Amanjolov bilan raqbatlashdi. Super og'iр vazni bokschimiz 103,4 kg vaznda, raqibi esa 118,8 kg vaznda ringga ko'tarildi. Raqib bokschisi bungacha beshta jang o'tkazgan va barchasida g'olib chiqqandi. Lazizbek Mullajonov esa asosiy e'tiborini havaskor boksga qaratgani bois uning professional boks faoliyatida uchta jang bor edi. Bularning barchasini u muddatidan oldin g'alaba bilan yakunlagan bo'lismiga qaramay, mutaxassislari tomonidan bo'l'usi jangda tajribali sportchi sifatida Nursultonning imkoniyatlari yuqori baholangandi. Lekin...

Polshadagi 6 raundlik reyting jangi muxlislarga kutilgan keskinlik va murosasizlikni baxsh etmadni, aksincha birinch raunddayoq yakunlandi. Qozoq bokschisi qaqshatqich zarbalar seriyasini o'tkazib yuborganidan keyin uchrashuv hakami jangni to'xtatib, texnik nokaut e'lon qildi. Professional faoliyatida ilk bor "kaltak" yegan qozoq bokschisi mag'lubiyatini tan olishni istamadi – texnik nokaut qayd etgan hakam bilan tortishib, uni bir necha marotaba turib ham yubordi. Aynan mana shu holat ko'pchilikning e'tiborini tortdi va muxlis-u mutaxassislar o'rtasida muhokamalarga sabab bo'ldi. Qozoq bokschisi jangdan keyin hissiyotlarini bosib olgach, mag'lubiyatini tan oldi va sababini mashg'ulotlar jarayoni yetarli darajada bo'lmagani bilan izohladni.

– Jangda men yutqazdim. Mag'lubiyatimning sabablari ko'п. Asosiysi – men ushbu jingga murabbiysiz tayyorlangan edim, – dedi Amanjolov matbuot xodimlari bilan suhabtida.

Shunday qilib, bir necha bor nomdor bokschimiz Bahodir Jalolov bilan jang qilish istagini bildirgan qozoq sportchisi N. Amanjolov

o'zining 6-jangida boshqa bir o'zbek charm qo'lqop ustasidan faoliyatidagi ilk mag'lubiyatini qabul qilib oldi. Ikki yo'nalishda jang qilayotgan armiyamiz vakili Lazizbek Mullajonov esa professional boksdagi 4-jangini ham nokaut bilan yakunladi. Bundan tashqari, Lazizbek havaskor boksa 46 ta g'alaba va 8 ta mag'lubiyat qayd etgan. U havaskor boks bo'yicha Osiyo championati g'olib, dunyo birinchiligi sovrindori va harbiy xizmatchilar o'rtasida jahon championatini esa O'zbekiston terma jamoasining 6 nafar vakili bronza medali bilan yakunladi.

O'tgan hafta oxirida MVSMning yana bir vakili Odiljon Aslonov ham professional boksdagi o'z mahoratini namoyish etdi. U Rossiyaning Serpuxov shahridagi "Nadejda" sport saroyida kechgan "IBA Champions Night" boks kechasi qatnashib, zafar qozondi. Aslonov ugandalik Shadir Musa Bvogiga qarshi ringga ko'tarilib, 5 raundlik jangda ochkolar bo'yicha g'alabaga erishdi. Ushbu boks oqshomida hamyurtimiz Muzaffar Rasulov ham qatnashdi va mezbonlar vakili Stanislav Vasilyevni 1-raunddayoq nokautga uchratdi.

Ham havaskor, ham professional boks bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan nomdor sportchimiz Bahodir Jalolov esa Amerika Qo'shma Shtatlari Tulsa shahrida Top Rank promouterlik kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan kechada qatnashdi. Og'ir vazni (111 kg) bokschimizga nigeriyalik Onoriode Ehveriyeme raqib bo'ldi. 8 raund etib belgilangan bahs uzoq davom etmadni va jang Jalolovning 1-raunddaggi nokautli g'alabasi bilan yakunlandi. Shunday qilib, Jalolovning professional boksdagi statistikasi 13-0 bo'ldi, ya'ni u barcha jangda raqibini nokautga uchratgan. Endi biz Bahodirni havaskor boks bo'yicha ring janglarida ko'rishimiz mumkin. U "Xanchjou – 2023" Osiyo o'yinlariga tayyorgarlikni boshlab yubordi. Rejaga ko'ra, 12-sentabr kuni Xanchjou shahriga yo'il olib, o'sha yerda Osiyo o'yinlariga so'nggi tayyorgarlikni olib boradi.



18-19-sahifalar muallifi Rasul JUMAYEV,
«Vatanparvar»

SHOHSUPA (xabarlar)




DZYUDO

Joriy yilgi yirik turnirlarda muvaffaqiyat qozonib kelayotgan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari Sardor Nurillayev (-66 kg) va Muhiddin Tilovov (-66 kg) Xorvatiyada o'tkazilgan dzyudo bo'yicha Zagreb Gran-prisida ham sovrindorlar qatoridan joy oldi. Nurillayev qiziqarli kechgan final bellashuvida braziliyalik Villian Limaga imkoniyatni boy berib, kumush medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Tilovov bronza medali uchun bahsda ispaniyalik David Torneni mag'lub etdi. Shu mamlakatda o'tkazilgan o'smirlar o'rjasidagi jahon championatini esa O'zbekiston terma jamoasining 6 nafar vakili bronza medali bilan yakunladi.




SAMBO

Qirg'izistonda sambo va jangovar sambo bo'yicha jahon kubogi bahslari o'tkazildi. Musobaqa davomida O'zbekiston terma jamoasi a'zolarining 18 nafari shohsupaga ko'tarildi. Xususan, Sohib Hasanboyev, Islom Nosirov va Shahzoda Asatova jangovar sambo bo'yicha o'z vazn toifalaridagi bahslarda g'olib chiqib, musobaqaning oltin medali bilan taqdirlandi. Yana 8 nafar sportchimiz kumush va 7 nafari bronza medalga sazovor bo'ldi.



OT SPORTI

Polshada o'tkazilgan konkur bo'yicha xalqaro musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Bekzod Qurbonov muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Chavandozimiz balandligi 140 sm.ni tashkil etgan to'siqlardan sakrash dasturida oltin medalni qo'lga kiritdi. Mazkur yo'nalishda unga "Santos Xipika" laqabli tulpori hamrohlik qildi. Bekzod ushbu musobaqaning 130 sm.dagi dasturida ham qatnashib, bronza medalga sazovor bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyatga u "Ledi" laqabli oti bilan erishdi.



OG'IR ATLETIKA

Faxriylar o'rmasida Polshada bo'lib o'tgan jahon championatida 56 ta davlatning 850 nafarga yaqin sportchisi ishtirok etdi. Musobaqada O'zbekiston madhiyasi yangrab, bayrog'imiz yuksak ko'tarildi. Shiddatli kechgan bahslar davomida hamyurtimiz Vyacheslav Buryuxov sobiq jahon va Yevropa championlarini, Olimpiya o'yinlari sovrindorlarini dog'da qoldirishga muvaffaq bo'ldi. U ikkikurash natijasiga ko'ra, 236 kg toshni o'ziga bo'ysundirib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi.



PARA TAEKVONDO

Janubiy Koreyaning Chuncheon shahrida para taekvondo bo'yicha jahon championati bo'lib o'tdi. Musobaqada uch nafar vakilimiz championlikka erishdi. Erkaklar o'rmasida -80 kg vazn toifasida Qudrat Muhammadiyev, + 80 kg vazn toifasida Asad Anvarov, ayollar o'rmasida + 65 kg vazn toifasida Guljanoy Naimovaga teng keladigan raqib topilmadi. Dunyoning yetakchi para taekvondochilari ishtirok etgan musobaqada terma jamoamiz a'zolari yana bitta kumush, 4 ta bronza, jami 8 ta medalga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi.

“TUPROG’ING KO’ZIMGA AYLAY TO’TIYO”

Dugonam Haj ziyoratiga borib keldi. Muborak bo’lsinga ancha keyinroq bordim. Bir hisobda yaxshi bo’lgan ekan – kelib-ketuvchilarning oyog’i uzilgan, bemalol suhbatlashish imkoni bor.

Dugonamdan Haj safari haqida anchagina ma’lumot oldim. To’g’risi, havasimni yashira olmadim, menga ham nasib etsin, deya chin dildan niyat qildim. Gap orasida dugonam xorijlik bir ayol bilan tanishganini aytib qoldi. Ayol imkon topsa, har yili bo’lmasa 2-3 yilda Haj ziyoratini kanda qilmas ekan. Puli, imkoni behisob, lekin o’zini baxtsiz va bevatan hisoblar ekan. Nega, degan

savol dugonam so’zini tugatmay turibog’ bo’g’zimdan otilib chiqdi. Axir musulmon kishi uchun Haj – beshinchi farz, iymoni but, ro’za va namozini o’z vaqtida ado etadigan, zakot berishni burch deb bilgan insongina oxirgi farzni bajarishga qodir. Ayol besh farzni to’liq amalga oshirsa-yu, o’zini baxtsiz, Vatansiz his qilsa, bu ajablanarli-da!

Dugonamning hikoyasidan o’ta ta’sirlandim. Asli kelib chiqishi O’zbekistondan bo’lgan ayol Turkiyada istiqomat qilar ekan. Ota-onasi barvaqt vafot etgan, turmush o’rtogi boshqa ayolni nikohiga olib, uzoq viloyatlardan birida yashar ekan. O’g’li va qizi voyaga yetib, ta’limni Amerikada davom ettirgan va shu yerda o’z juftlarini topib, uyli-joyli bo’lgan ekan. Ayol shirinliklar tayyorlab sotish orqali anchagina boylik to’plabdi. Hozirda shirinliklar tayyorlash sexida 15-20 chog’li ishchiga bosh ekan. Lekin oila mehri, Vatan ishqji unga begona. Bir necha bor O’zbekistonga kelishga harakat qilibdi-yu, ota-onasi, ajdodlari haqida hech qanday ma’lumotga ega emasligi uni bu yo’ldan qaytishga majbur qilibdi: “Hech bo’limganda, otam yoki onamning tug’ilgan manzilini

bilganimda edi, o’sha yerga qanot qoqib uchardim”.

Manbalardan o’zbek xalqi, uning qadriyatları, urf-odatlari haqida ko’p o’qiyman, hayratlanaman. Ularga ich-ichimdan havas qilaman. Axir ayol uchun oilang, farzandlaring, suyanguvchi turmush o’rtog’ing borligi, Vataning quchog’ida yayrab-yashnab hayot kechirishning o’zi dunyolarga alishmas baxt-ku, debdi dugonamga u ayol.

Haqiqatan ham, o’zbek xonadoni baxtlar makoni, mehrning koni, Vatanga sadoqat, Vatanni sevmoq sabog’i oiladan boshlanadi. Zero oila Vatan ichra kichik bir Vatandir. Xorijlik ayolning Vatanga talpinishida ham hikmat bor, ibrat bor. To’g’ri, u ayol yashash tarzi, moddiy ta’mimat jihatdan o’zbek ayolidan ustundir. Lekin tandirdan uzilgan issiq patir, bir piyola ko’k choy, muhimi, kun va tuni tinch, osuda o’zbek ayoli undan-da boyroq va baxtiroq. O’zbek ayolining O’zbekiston degan muqaddas oshyonini bor, buguni, ertasi tinch, kelajagi buyuk Vatani bor, “tuprog’ing ko’zimga aylay to’tiyo” deb faxrlanuvchi jannatmakon ona zamini bor, osmoni musaffo, tinchlik degan xush kalomi bor.

TURMUSH CHORRAHASI

MAHALLANING SIRI

Yo’lim ustida mardikor bozori bor. Har kuni bu yerdagilarning rizq-nasiba ilinjida javdirab turgani, kimdir shu tomonga yursa, yugurib unga peshvoz chiqishini ko’rishdan yuragim og’riydi. Ularning ichida menga “ko’z tanish” bo’lib qolgan ayol ham bor.

Nozik jussali, ma’yus nigoqli bu ayol keluvchi yoniga chaqqonlik bilan yetib boradi va ortidan kelgan sheriklar qurshovida ko’rinmay qoladi. “Bu ayol ishga, og’ir jismoniy mehnat talab etadigan yumushlarga qanday yararkan”, deb juda ko’p o’yladim. Ittifoqo, bir dugonam bilan o’sha yerdan o’tayotganimda, “Voy, Sabohat mardikorlik qilarkan-da!” deb yubordi va menga “ko’z tanish” bo’lgan o’sha ayolni ko’rsatdi. Men Sabohatning taqdiriga qiziqib, dugonamdan u haqda gapirib berishini so’radim. Dugonamning aytishicha, Sabohatning

turmush tarzi murakkab. Turmush o’rtog’i Malikjon bilan yashayotganiga chamasi 20 yil bo’libdi. Malikjon uning ikkinchi turmushi, qizi bilan kelgan Sabohat Malikjondan farzand ko’rmabdi. Er-xotin qizni uzatib, neveralar ko’ribdi, o’g’il neverani o’z tarbiyalariiga olibdi ham. Shu orada mahalla boshiga bir kichik do’kon qurib, qishloq ahliga savdo xizmati ko’rsatishni boshlabdilar.

Er-xotin ahil-inoq ekan. Neverasi mактабдан kelib, savdoga qarasha boshlabdi. Sabohat ora-sirada ulgurji bozorga neverasini olib ketar, birgalashib mahalla ehtiyoji uchun zarur mahsulotlarni xarid qilib kelardi. Neverasi ham odobli, chaqqon va yoqimtoy bola edi. Kunlarning birida Sabohat bozorga neverasi bilan kelib, uyga o’zi yolg’iz qaytdi. Aytishlaricha, bola yuklarni katta yo’ldan olib o’tishda halokatga uchragan va shifoxonada uzoq vaqt davolanishiga qaramay, vafot etgan.

Er-xotin, qiz faryod chekdi, qudalarning ta’na-yu dashnomlарidan yanada ezildi. Taqdirning bu zarbasi ona-bolani bir-biridan ajratib yubordi. Qaynona, qaynota va kuyov qizning onasi bilan ko’rishishiga chek qo’ydi. Musibat, aybdorlik, Sabohatni yengdi – u yurak xastaligiga chalindi. Malikjon esa hayotga loqayd boqadigan bo’lib qoldi, do’konni bir o’zi boshqarar, savdodan baraka qochgan edi.

Yillar o’tdi, g’am, alam biroz unutildi. Sabohat oyoqqa turdi, u yashash uchun kurashishga o’zida kuch topdi. Lekin uni kunduzlari ko’rmay qo’yidik. Ozib-to’zib ketgan Sabohat to’y-ma’rakalarda ko’rinish bermay qo’ydi, uni gohida shomdan keyin shoshilib kelib, uyiga kirib ketayotganini ko’rib qolamiz. Mana, endi tushundim, u mardikorlik qilib, o’zini o’zi ovutib yurarkanda, dugonamning ko’zlarini yoshlandi. Bu achchiq qismat, bu ajab savdo bir ayolning guldek umrini g’am-anduhga ko’mdi, ayolning yuzidan qizillik, ko’zlaridan nur, labidan tabassum yo’qoldi, er esa beparvo, kun o’tsa, bo’ldi qabilida yashab yuribdi. Men chuqur o’yga botdim. Taqdir zarbasi qaddini bukkan birgina Sabohat emasdir, yana o’nlab, yuzlab Sabohatlar ajab savdolar qurbanib bo’lib,

jamiyatdan yakkalanib qolgandir. Qo’ni-qo’shni, qarindosh-urug’, mahalla yordamisiz noumid, nochor yashayotgandir.

Dugonam cho’rtkesar, tutgan joyini uzadigan ayol. Oradan ancha vaqt o’tib, eshitishimcha, u Sabohat bilan tillashish yo’lini topibdi. Uni yana do’konga, erining yoniga mahalla-ko’yga qaytaribdi. Eng asosiyisi, qudalari bilan yarashtirib qo’yibdi, onani qizga, qizni unga yaqinlashtiribdi.

Hozir Sabohatning do’koni kengaygan. O’zi tadbirkor, ishbilarmon ayol maqomiga erishib, hayotdan mammun yashayotgan ekan. Qanday qilib? Dugonam ayni savolimga “Bu mahalla siri”, deb kulib javob berdi. Demak, mahallada pir-u badavlat otaxonlar, kayvoni onaxonlar bor ekan, oilalar mustahkam, uning istiqomatchilari baxtiyor bo’lib boraveradi. Bu esa, o’z navbatida, Vatan ravnaqiga, taraqqiyotiga asosiy omildir. Vatan – olijanob, yurtga, diyoriga sadoqatli Sabohatlari bilan go’zal va beqiyosdir.

Eng muhimi, Vatan oiladan boshlanadi, oila esa erkak va ayol juftligidan hosil bo’ladi. Sabohatni jamiyatga qaytarish bilan bir oila ustuni baquvvat bo’ldi, oila barqarorligi ta’minlandi. Yangi hayot uchun, Yangi O’zbekiston uchun Sabohatlarni asrasak, Vatanni asragan bo’lamiz.

"Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan kompleks tadbirlarning 2-bosqichi Surxondaryo viloyatidan boshlandi.



Ushbu bosqichda asosan olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va farzandlarini chuchurlashtirilgan tibbiy ko'rnikdan o'tkazish, murojaatlarini o'rganish bosh maqsad qilingan.

"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar

targ'ibot-tashviqot ishlari davrida o'tkazilayotgani bilan ham yanada yuqori ahamiyat kasb etmoqda.

Dastlab ommaviy sayyor qabullar tashkil etilib, murojaatlar tinglanmoqda va qonun doirasida joyida hal etish choralar ko'rilmoxda. Malakali tibbiyot mutaxassislar va zamonaviy tibbiy apparatlar jalb etilgan holda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bepul chuchurlashtirilgan tibbiy ko'rnikdan o'tkazilmoqda va tavsiyalar berilmoqda.

Shuningdek, olis hududlarda joylashgan harbiy shaharchalardagi yashash sharoitlari o'rganiromoqda. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari tadbirkorlik hamda qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlar, imtiyoz va imkoniyatlardan foydalinish uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishtilrimoqda.

Adliya polkovnigi
Sherzod MIRZAYEV,
Termiz harbiy prokurori

✓ MA'NAVIYAT

HAMJIHATLIK SABOG'I

Davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilmoqda.



Farg'onha harbiy prokuraturasi tashabbusi bilan harbiy qismda o'tkazilgan "Uch avlod uchrashushi" ham bu boradagi tadbirlardan biri bo'ldi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va Farg'ona viloyati prokururasi, Qurolli Kuchlar faxriylari, soha xodimlari va harbiy xizmatchilar ishtiroy etdi. Tadbir davomida faxriylar va yoshlar harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar hamda harbiy qism o'quv binosi bilan yaqindan tanishdi. Shundan so'ng Farg'ona shahridagi diqqatga sazovor maskanlarga tashrif uyushtirildi.

Adliya podpolkovnigi Shukurjon TOSHMATOV,
Farg'ona harbiy prokurorining katta yordamchisi

✓ YONG'IN XAVFSIZLIGI

TUTUN VA KUYINDI ALANGANING O'ZIDAN XAVFLIROQ! NEGA?

Aholining ba'zan gaz uskunalaridan foydalinish qoidalariiga riousha etmasligi yoki bu boroda zarur bilimga ega emasligi natijasida ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zaharlanish hodisalari ro'y berayotganligi kuzatilmoqda. Xo'sh, buning oldini olish uchun nima qilishimiz kerak. Quyida aynan shu haqda fikr yuritamiz.



Eng avvalo, gaz isitish pechlarining soz holda ishlashini muntazam ravishda nazorat qilib turing, tunda ularni o'chirib qo'yishni unutmang!

Turmushda tabiiy gazdan foydalilanayotganda iste'molchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

- o'zboshimchalik bilan uy (*xonodon, dalafovli*)ni gazlashtirish, gaz asbobi o'rnini almashtirish, uni yangilash va tuzatish;

- gaz asboblari o'matilgan xonalar rejasи, dudburon va shamollatish tizimlari, gaz asboblari konstruksiyasini o'zgartirish;
- dudburonlarni tozalash "cho'ntaklar" va darchalarini berkitish (*dudburon va shamollatish kanallari tekshirilganligi hamda tozalanganligi to'g'risidagi dalolatnomanning muddati tugagan hollarda gazdan foydalish*);
- fortokchalar (*framugalar*), jalyuzali panjaralar, shamollatish kanallarining

panjaralari, yuvinish xonasi va oshxonalarini ostidagi tirqishlar yopiqligida, dudburon hamda shamollatish kanallarida tortish bo'Imagan hollarda gazdan foydalish;

- xonada gaz hidini sezganda elektr asboblari yоqish yoki yoqilgan bo'lsa, o'chirish.

Yong'in paytida sinil kislotsasi, fosgen va boshqa zaharli gazlar ajraladi hamda havodagi kislород miqdori kamayadi. Shuning uchun ham alangadan ko'ra undan chiqayotgan tutun va kuyindilar xavfliroqdir. Odam organizmining yonish mahsulotlari konsentratsiyasidan ta'sirlanishini ham inobatga olish lozim.

Is gazi: 0,01% – boshning yengil og'ishi; 0,05% – bosh aylanishi; 0,1% – hushdan ketish; 0,2% – koma, tez o'lim; 0,5% – juda tez o'lim oqibatlariga olib keladi.

Bunday hollarning oldini olish uchun esa quyidagi oddiy qoidalarga qat'iy amal qilish zarur:

- isitish mavsumi boshlanishi oldidan pechlar, qozonxonalar, suv isitish kolonkalari sozligi, mo'rkonlar tozaligini tekshiring;

- nosoz, nostandart, qo'lba yasalgan isitish va gaz moslamalaridan foydalinishga aslo yo'i qo'y mang;

- bolalar va imkoniyati cheklangan kishilarni nazoratsiz qoldirmang;

- tabiiy gazdan foydalinishda turli xil rezina shlanglar, gazso'rgichlardan foydalananmg;

- chet davlatlarda ishlab chiqarilgan isitish moslamalaridan faqat yo'riqnomalar bilan yaxshilab tanishib chiqqandan keyingina foydalananng.

Kapitan Sardor ERBEKOV,
Toshkent garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

O‘zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkiloti Xorazm
viloyati kengashi jamoasi
davlatimiz mustaqilligining
32 yilligi munosabati bilan butun
xalqimizni, harbiy xizmatchilar
va ularning oila a’zolarini,
“Vatanparvar” tashkiloti
tizimida mehnat qilayotgan
fidoyi hamkasblarimizni samimiy
tabriklaydi.

Barchangizga tinchlik-omonlik,
baxt-u saodat, xonadoningizga
fayz-u baraka tilaymiz.

*Yurtimiz tinch, osmonimiz
musaffo, aziz xalqimiz omon
bo'lsin!*

O‘zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar” tashkiloti Sirdaryo
viloyati kengashi jamoasi Siz, aziz
yurtdoshlarimizni mamlakatimiz
mustaqilligining
32 yillik bayrami bilan samimiyligini
qutlab, Vatan ravnaqi, xalqimiz
farovonligi yo‘lidagi samarali
ishlaringizda ulkan zafarlar yor
bo‘lishini tilab qoladi.

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

*O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga
ko‘maklashuvchi “Vatanparvar”
tashkiloti Namangan viloyati kengashi
tasarrufidagi Pop tumani o‘quv
sport-texnika klubi jamoasi barcha
vatandoshlarimizni mamlakatimiz
mustaqilligining 32 yillik ayyomi bilan
chin qalbdan muborakbod etadi.
Doimo yurtimiz tinch, osmonimiz
musaffo bo‘lsin!*

*Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin,
aziz yurtdoshlar!*

O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti
Toshkent viloyati kengashi
tasarrufidagi Yangiyo'l shahri
o'quv sport-texnika klubi jamoasi
xalqimizni, mamlakatimiz Qurollı
Kuchlari saflarida xizmat
qilayotgan barcha harbiylar
hamda "Vatanparvar" tashkiloti
tizimida mehnat qilayotgan
hamkasblarimizni mamlakatimiz
mustaqilligining 32 yillik
ayyomi bilan tabriklaydi.

*Eng ulug', eng aziz bayramımız
muborak bo'lsın!*

EHTIYOJ, E'TI BOR, ROF



Aksariyat o'g'il bolalarning kichkinaligidan yaxshi ko'rib o'ynaydigan o'yinchog'i bu albatta mashina! Hattoki boshlang'ich sinfda o'qib yurganida ham mukammalroq texnikalarni o'ynab yurgan bolalarni bilaman.

Ammo 10 yoshida "Mini" sinfida karting bo'yicha O'zbekiston championligini qo'lga kiritgan sirdaryolik Dilxushbek Murodovning natijasini ko'rdim-u, otangga rahmat, dedim.



Tasodifni qarangki, uning ustozi ham o'z otasi ekan. Yo'lim tushib, u bilan tanishish va suhbatlashish niyatida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Respublika texnik va amaliy sport turlari markazida bo'ldim. "Yosh poygachilar" karting sporti mahorat matabida mashg'ulotlarini davom ettirayotgan yosh championning mahoratini o'z ko'zim bilan ko'rganimdan keyin yana bir bora qoyil qoldim. U keskin burilish joylarida sport mashinasini mahorat bilan boshqarib, "manyovr" ko'stardi. Ikki-uch aylanadan keyin o'z joyiga qaytgan Dilxush mashina motorini o'chirib, boshidagi kaskasini yechgan zahoti uni savolga tutdim.

– Keskin burilishdagi "manyovr"ni qanday amalga oshirdi?

– Gazni qattiqroq bosib, rulni burasiz va tezda tormozni bosasiz, bo'ldi. Shunda mashinaning orqa tomoni aylanib, osonroq buriladi, – deydi bolalarcha beg'uborlik va tabassum bilan.

– Hali ancha yosh ekansan, texnikani boshqarish qiyin emasmi?

– Yo'q, agar qiziqsangiz, hammasi oson, – deydi yana tabassum bilan.



– Sening yoshingdagagi bolalarning aksariyati hali o'ynichoq mashina o'ynab yuribdi, sen esa O'zbekiston championisan. Sinfoshlarining havas bilan qarasa kerak?

– Sinfoshlarim ham kartingga qiziqadi. Lekin oldin texnik qoidalarni bilmasdan turib, bu texnikani boshqarishga ruxsat berishmaydi.

– Bu kuzovsiz mashinalarning o'lchami har xil ekan. Ular yoshga qarab ajratiladimi?

– Sportchining og'irligi va bo'yiga qarab ajratiladi. Hozirda men boshqarayotgan texnika ayni mening bo'yim va og'irligimga juda mos. Namangan viloyati Uchqo'rg'on shahrida o'tkazilgan karting bo'yicha O'zbekiston Championatingning taqdirlash marosimida "Vatanparvar" tashkiloti rahbari Husan Botirov men bilan Tamara Bobojonovaga ikkita sport mashinasini sovg'a qilgandi. Shundan keyin mashg'ulotlarni ko'paytirdim. Xatolim ustida dadam bilan ishladi. Oxirida "Mini" sinfida karting bo'yicha O'zbekiston championligini qo'lga kiritdim. Tamara opa esa "125 Kadet" sinfida 3-o'rinni egalladi. Endigi maqsadim – jahon championi bo'lish.

Asli Xorazm viloyatidan bo'lgan 14 yoshi Tamara Bobojonovaning natijasi ham tahsinga loyiq. Ularning har ikkisiga ham omad tilagan holda ortga qaytdik.

Yosh bo'lismiga qaramay, gaplarining dadilligi, o'zini erkin tutishi va eng asosiysi, marranning yuksakligi biz kattalar uchun ham o'nak bo'lsa, ne ajab, degan fikrlar og'ushida yo'lga tushdik. Qadim-qadimdan qahramonlarga ehtiyoj sezilganda ertaklar, afsona va rivoyatlar to'qilgan. Ellarda, tillarda mashhur bo'lgan ertak qahramonlariga hamma havas qilgan. Yoshlar ulardek bo'lismiga intilgan...

Hozirgi kunga kelib, ertak qahramonlarga zarurat qolmadidi, chunki ular ertaklardan chiqib, hayotiy qahramonlarga aylanib ulgurdi. Biz mahalladagi yoshlarning yetakchilari sifatida Dilxush va Tamarani o'z hududimizdag'i tengdoshlariga o'nak sifatida ko'rsatsak, arziydi. Yosh qahramonlarimizning erishayotgan yutuqlari tengdoshlarini ham katta maqsadlar sari ilhomlantira olsa, ne ajab...

**Abdimurod RUSTAMOV,
Paxtachi tumani "Tadbirkor"
MFY yoshlar yetakchisi**

UCHRASHUV

IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining rahbar xodimlari bilan uchrashuv o'tkazildi.



Tomonlar Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Litva, Latviya, Slovakiya va Polshada texnik kasb mutaxassislariga bo'lgan yuqori talabni "Vatanparvar" tashkiloti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qondirish mumkinligi masalalarini muhokama qildilar.

Hozirda Yevropada 10 mingdan ziyod "CE", "D" toifadagi haydovchilarga va minglab turli texnik kasb egalariga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan turli mamlakatlardan, jumladan O'zbekistondan ushbu kasb mutaxassislarining Yevropa davlatlariga borib ishlashlari uchun imkoniyat yaratadi.

"Vatanparvar" tashkilotining 210 dan ortiq o'quv muassasasida respublika bo'ylab yiliga o'rtacha 150 ming naflar fuqaro haydovchilik kasbi, minglab yoshlar texnik xizmat ko'satish va murakkab texnikalarni boshqarish mutaxassisliklariga tayyorlanmoqda. O'z navbatida, ushbu omil tashkilotning Yevropa davlatlari talabini qondirishi mumkin bo'lgan malakali kadrlarni yetkazib berish quvvatiga ega ekanligini anglatmoqda.

Yaqin kunlar ichida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan ushbu masala yuzasidan aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

"VATANPARVAR" TASHKILOTI – MENING TANLOVIM!"

Daylatimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubida "Vatanparvar" tashkiloti – mening tanlovim! shiori ostida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.



Tadbirda mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlar, "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik harakati otryadlarining a'zolari hamda mehnat faxriylari ishtiroy etdi.

Tadbir mobaynida yoshlarga "Vatanparvar" tashkiloti tarixi, bugungi kunda tashkilot tomonidan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, sportning texnik va amaliy turlarini ommalashirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek bu ishlarni amalga oshirishda yoshlar uchun yaratilgan imtiyozlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tashkilot tizimidagi "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Yozgi biatlon", "Pnevmatik" quroldan o'q otish", "Modelizm" kabi sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sekxiyalarning ko'rgazmalari namoyishi yig'ilganlarning qiziqishiga sabab bo'ldi.

Muloqotlar davomida yoshlar "Vatanparvar" tashkilotining avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kursi faoliyati, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv xonalari va trenajorlar bilan tanishdilar.

Tadbirning badiiy qismida Mudofaa vazirligining "Impuls" harbiy ansambl tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ishtiroychilarga xursandchilik ulashdi.

Mukofotlar

MUBORAK BO'LSIN, hamkasblar!

Bu yilgi qutlug' ayyom tahririyatimiz uchun har yilidan ko'ra yodda qolarli xushxabarlarga boy bo'ldi. Bayram arafasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining ikki xodimi – qo'shinlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i katta leytenant Islomjon Qo'chqorov "Kelajak bунyодкори" medali hamda kotibiyatning sahifalovchi dizayneri Qurolli Kuchlar xizmatchisi Begali Eshonqulov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Yana biri jurnalistimiz Qurolli Kuchlar xizmatchisi Zulfiya Yunusova O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan "Vatan uchun yashaylik!" tanlovida sovrindor bo'ldi.

Ularning uchalasi ham Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, tilga tushgan shoir.

O'quvchilik yillardan o'z she'rлari bilan tuman, viloyat, respublika gazeta va jurnallarida qatnashib kelgan Begali Eshonqulov (*Bek Ali*) ham, Islomjon Qo'chqorov ham respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi. Ularning "Seni izlayman", "Men axir senman" nomli ilk kitoblar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Birinchi kitobim" ruknida chop etilgan.

Shuningdek, ijodiy ishlaridan namunalari "Samarqand yoshlar bayozi", "Onajonim", "Samarqand mushoirasi" (*Yoshlar bayozi*), "Yurtga qalqon harbiylar" bayozlariga kiritilgan; "Vatanparvar", "Zarafshon", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "O'zbekiston armiyasi", "Yoshlik", "Hurriyat", "Guliston" kabi gazeta-jurnallar hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan.

Bek Ali nazmda dostonchilik an'anasi ham davom ettirib kelayotgan ijodkorlardan. Uning "Elomon" dostoni fikrimizning yaqqol tasdig'idir. 2023-yil O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

tomonidan o'tkazilgan "Posboniman muqaddas yurtning" tanlovingi respublika bosqichida Begali Eshonqulovning aynan mana shu dostoni oliy o'ringa loyiқ ko'rildi.

Iqtidorli, o'z uslubiga ega bu ikki shoir joriy yilda Respublika miqyosida o'tkazilgan "Vatan manzumasi" adabiy-ma'rifiy konsert dasturida faol ishtirok etdi. Islomjonning 2000-yilda Sariosiyo va Uzun tumanlaridagi jangovar harakatlarda qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasiga bag'ishlangan "Kechki yo'qlama" she'ri, Begalining Cho'pon she'rлari bilan adabiy chiqishi she'riyat ixlosmandlari tomonidan olqishlar bilan kutib olingandi. Ular O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yillik bayram dasturida ham muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

Davlat mukofoti sovrindorni, bir necha hikoyalar to'plamlari muallifi Zulfiya Yunusovani o'quvchilarimiz yaxshi tanishsa kerak. Ijodkorning vatanparvarlik, yurtga sadoqat, insoniylik, mehr-muhabbatga yo'g'rilgan hikoyalarini albatta o'qigansiz.

Har uchala kasbdoshimiz ham milliy armiyamizda

kechayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish orqali harbiy-vatanparvarlikni targ'ib-tashviq qilishda ham alohida jonbozlik ko'rsatib kelyapti. Ular faolligi, qo'shinlar jangovar shayligini oshirishga va yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga qo'shgan hissasi uchun bir necha bor ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishgan.

Harbiylar bilan bir safda turib, ular bilan birga gohi tog'da, gohi dalada issig'-u sovuq demay, murakkab mashg'ulotlarni, qo'shinlarda kechayotgan islohotlarni, o'zgarishlarni keng yoritayotgan, xalqimiz, ayniqsa yoshlar o'rtaida harbiy kasb va xizmatning muqaddas ekanligini targ'ib qilayotgan kasbdoshlarimizni yuksak mukofotlar bilan qutlab, ularga mustahkam sog'liq, kuch-quvvat, yuksak ijodiy parvoz tilaymiz!

TAHRIRIYAT

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

